

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI
“IQTISODIYOT” FAKULTETI
«BUXGALTERIYA HISOB VA AUDIT» KAFEDRASI

“HIMOYAGA TAVSIYA ETILADI”

“BH va A” kafedra mudiri
_____ dots. O.Xushmuradov

“_____” _____ 2011 yil

“TASDIQLAYMAN”

“Iqtisodiyot” fakulteti
_____ i.f.d. A.Xurramov

“_____” _____ 2011 yil

**“Qorako‘lchilikda ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot
tannarxini kalkulyatsiya qilishni takomillashtirish”
(Nishon tuman “Qorako‘lchilik-naslchilik” qishloq xo‘jalik kooperativi
(shirkat xo‘jaligi) misolida)
mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY
ISHI**

Bajardi:

“Moliya” yo‘nalishi bitiruvchi
IV-kurs B-4I guruh talabasi
_____ G'.Jumayev

Ilmiy rahbar:

Viloyat “Qorako‘l” birlashmasi
bosh hisobchisi
_____ A. Haydarov

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o‘tdi
3-sonli 22 iyun 2011 yil

Qarshi-2011 yil

“Tasdiqlayman”
“BH va A” kafedrası mudiri
dots. O. Xushmuradov
“ _____ ” _____ 2010 yil

Mavzu: “Qorako`lchilikda ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishni takomillashtirish”
(Nishon tuman “Qorako`lchilik-naslchilik” qishloq xo`jalik kooperativi (shirkat xo`jaligi) misolida).

REJA:

Kirish

I-bob. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning mohiyati va vazifalari.

- 1.1. Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish hisobining vazifalari va usullari
- 1.2. Ishlab chiqarish xarajatlarining hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya tashkil etish asoslari.
- 1.3. Ishlab chiqarish jarayonidagi nobudgarchiliklar hisobi va ularni ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga o`tkazish tartiblari.

II-bob. Nishon tuman “Qorako`lchilik-naslchilik” qishloq xo`jalik kooperativi (shirkat xo`jaligi)da ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish holati.

- 2.1. “Qorako`lchilik-naslchilik” qishloq xo`jalik kooperativida chorvachilik mahsulotlari xarajatlarini hisobga olishning sintetik va analitik hisobi.
- 2.2. Chorvachilik mahsulotlari tannarxini kalkulyatsiya qilishning o`ziga xos xususiyatlari.

III bob. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida chorvachilik xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishni takomillashtirish.

Xulosa va takliflar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati.

Ilovalar.

Ilmiy rahbar:

**Viloyat “Qorako`l” birlashmasi
bosh hisobchisi A. Haydarov**

B-41 guruh talabasi:

G.Jumayev.

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi: Chorvachilik qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i hisoblanadi. Chorvachilikning qishloq xo'jalikdagi ulushi o'rtacha 45-48 foizni tashkil etadi¹.¹ Bu tarmoq aholini yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan va sanoatning ko'p tarmoqlarini xom-ashyo bilan ta'minlaydi. Shuning uchun ham hukumatimiz chorvachilik taraqqiyotiga har doim katta e'tibor berib kelgan. Mahsulot ishlab chiqarish har doim jonli mehnat bilan ishlab chiqarish vositalari tariqasida moddiy sarflar bo'lishini talaba qiladi. Boshqacha qilib qaytganda, jonli mehnat va ishlab chiqarish vositalarining ishtirokisiz mahsulot yetishtirishni o'zi bo'lmaydi. Mahsulot yetishtirish uchun xom-ashyo, materiallar, urug', yem-xashak, ehtiyot qismlar, energiya quvvati, mehnat va hokazolar sarflanadi.

Respublikamizda chorvachilik tarmog'ini rivojlantirish uchun ko'pgina ishlar amalgam oshirilmoqda. Ya'ni barcha moliyaviy muassasalar tomonidan fermer xo'jaliklari hamda aholiga imtiyozli kredit asosida chorva mollarini sotib olish imkoniyatlari yaratib berilmoqda.

Qorako'lchilikda qorako'l qo'ylarining mahsulodorligini oshirish bozor talabi doirasida qorako'l teri yetishtirishni, uning sifatini yaxshilash, qora, ko'k, sur va boshqa kamyob rangdagi terilar yetishtirish maqsadida qorako'l zotini uzluksiz takomillashtirish, ko'proq miqdorda yuqori sifatli qorako'l teri va boshqa qorako'lchilik materiallarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishni takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Shu jihatdan qishloq xo'jaligi Respublikamiz xalq xo'jaligining yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lib kelgan va u shunday tarmoqlaridan biri bo'lib kelmoqda. Buning negizida turli sabablar yotadi. Ularning asosiylariga quyidagilarni kiritish mumkin:

Birinchidan, Respublikamiz aholisining 60 foizidan ko'prog'i qishloq joylarda yashaydi. Bu o'z navbatida, qishloq joylarda yashovchi aholini ish bilan ta'minlaydigan asosiy soha ekanligini bildiradi.

Ikkinchidan, mamlakatimizni iqlim sharoiti va tabiiy resurslari qishloq xo'jalik mahsulotlarini tez yetishtirish imkonini beradi.

Uchinchidan, 28 milliondan ortiq aholini qishloq xo'jalik mahsulotlariga aynan chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini mahalliy sharoitlardan kelib chiqib hal etish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

To'rtinchidan, qishloq xo'jaligi mamlakatimizning kun sayin rivojlanib borayotgan yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari korxonalarini arzon va qulay, sifatli mahalliy xom-ashyo va materiallar bilan ta'minlashning asosiy manbai hisoblanadi.

Beshinchidan, Respublikamizda yetishtirayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining ko'pchilik turi boshqa mamlakatlarda yetarlicha emasligi, qishloq xo'jaligining nafaqat ichki maqsadlardagi, balki eksportbop mahsulotlar ishlab chiqaradigan tarmoqqa aylantirish imkonini beradi.

¹ Manba. Davlat statistikasi qo'mitasi

Qishloq xo'jalik tarmog'ini Respublikamizda rivojlantirish sabablari va imkoniyatlarini nafaqat yuqoridagilar bilan chegaralanadi, ular to'g'risida juda ham ko'p izohlarni keltirish mumkin. Yana shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning sezilarli qismi qishloq xo'jalik sohasiga to'g'ri keladi. Jumladan, yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "Keyingi 10 yilda, ya'ni 2000-yilga nisbatan taqqoslaganda, 2010-yilda mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot qariyb 2 barobar aholi jon boshiga hisoblaganda, qariyb 2,7 barobar oshdi²".

Shu nuqtai nazardan qaralganda tanlangan bitiruv malakaviy ishi qishloq xo'jaligining chorvachilik tarmog'i mavzu qilib olindi. (Nishon tuman "Qorako'lchilik-naslchilik" qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi) misolida).

Mavzuni o'rganilganlik darajasi ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish masalalarini talqin etish muammolari bo'yicha ko'pgina olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida ifoda etganlar.

Jumladan, Respublikamiz olimlaridan M. Ostonaqulov, B. Xasanov, M.Umarov, K. Axmadjonov, P. Do'stmurodov, N. Sanayev va ko'pgina boshqa olimlarimizning ilmiy tadqiqot ishlarida ko'rsatib o'tilgan.

Yuqoridagi fikr va mulohazalarga qaramasdan qorako'lchilikda ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish bo'yicha muammolarni takomillashtirish ishlari o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari qorako'lchilikka xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishni tashkil etish asoslarining nazariy tomonlari mohiyatini ochib berish mavjud sohadagi muammolarni yoritib berish, tarmoqdagi ichki imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish samaradorligini oshirishni takomillashtirish to'g'risida fikrlarni bildirishdan iboratdir.

Bu sohada qilinadigan vazifalar quyidagilar:

1. Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini hisobga olishni kalkulyatsiya qilish usullarini ochib berish;
2. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish vazifalari, uni tashkil qilish asoslarini yoritish;
3. Ishlab chiqarish jarayonida nobudgarchilik hisobi va ularni ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga o'tkazish tartiblarini ko'rsatib berish;
4. Chorvachilik mahsulotlari tannarxini kalkulyatsiya qilish holatini ifodalash va boshqalar.

Ilmiy yangiliklar quyidagilardan iborat:

1. Chorvachilik tarmog'ini rivojlantirish maqsadida aholiga davlat yordami asosida imtiyozli kreditlar ajratish;
2. Qishloq xo'jaligiga tegishli bo'lgan parrandachilik, asalarichilik tarmog'ini yanada rivojlantirish;
3. Sut va go'sht mahsulotlarini qayta ishlaydigan kichik-kichik korxonalarni qishloq joylarida qurib ishga tushirishni yaxshi yo'lga qo'yish ko'rsatib berilgan.

² Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish va xalqimiz forovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Ma'rifat" gazetasi 2011-yil, 22-yanvar, 2-bet.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy uslubiy asoslari O`zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Prezident I.A.Karimovning Makroiqtisodiy masalalarga bag`ishlangan asarlari xususan chorvachilik tizimiga bag`ishlangan nutqlari, ilmiy asarlari, internetdan olingan ma'lumotlar tadqiqotning nazariy uslubiy asosini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishi natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati qishloq xo`jaligida chorvachilik xarajatlarini hisobga olish, mahsulot tannarxini hisobga olishni tashkillashtirishda ba'zi muammolarni hal etishda yordam beradi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi, kirish, o`rta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yhatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishi 98 betdan iborat bo`lib, uning tarkibida bir chizma, 4 ta jadval mavjud.

I-bob. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning mohiyati va vazifalari.

1.1. Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish hisobining vazifalari va usullari

Mustaqillik yillarida hisobning markazlashtirilgan rejasi iqtisodiyot talablari ishlashga moslashtirilgan hisob tizimidan bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan hisob tizimi shakllandi va bu tizim xalqaro talablar asosida barpo qilinmoqda.

Buxgalteriya hisobi – bu korxonalar, tashkilotlar, xo`jalik mablag`lari, ularning harakati hamda xo`jalik jarayonlari, ularning natijalariga joriy va yakuniy ma'lumotlarni olish maqsadida tashkil qilinadigan uzluksiz, op`zaro bog`liq hujjatli kuzatishdir. Aynan buxgalteriya hisobi barcha xarajatlar va daromadlar xususida korxona rahbariyatiga to`liq ma'lumot bera oladi.

Buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi, xo`jalik yurituvchi subyektlarning bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat bardoshligini aniqlash, ularning xarajatlarini hisoblab chiqarish hamda faoliyatining moliyaviy natijalariga qaratilgandir.

Mahsulot yetishtirish uchun xom-ashyo, materiallar, yem-xashak, mehnat va boshqalar sarflanadi. Demak, mahsulot yetishtirish uchun sarflangan ishlab chiqarish xarajatlarini pul shaklida ifoda etilishi mahsulot tannarxi deb ataladi. Tannarx xo`jalik faoliyatining asosiy ko`rsatkichlaridan biri bo`lib hisoblanadi. Mahsulot birligining tannarxi darajasiga qarab, uning moliyaviy faoliyatiga bilvosita baho berish mumkin. Mahsulot tannarxi eng muhim natijaviy ko`rsatkichdir. Uning yordamida xo`jalik hisobini takomillashtirish, ishlab chiqarishni ratsional tashkil etish va hokazo omillarning ta`siri namoyon bo`ladi.

Mamlakatimizda rejalashtirishning hozirgi tuzumida korxona faoliyatini baholashda foyda iqtisodiy ko`rsatkichi asosiy ko`rsatkich qilib olingan, ammo bu mahsulot tannarxi ko`rsatkichining ahamiyatini kamaytiradi degan gap emasdir, korxonalarning ishlab chiqarish moliya rejasini tuzishda mahsulot tannarxi iqtisodiy ko`rsatkichiga alohida ahamiyat beriladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda xarajatlar alohida o`rin tutadi.

Xarajatlar, mahsulotlarni ishlab chiqarish, Tovar sotish, ish bajarish va xizmat ko`rsatish bilan bog`liqbo`lgan sarflarning puldagi ifodasidir. Korxonalarda xarajat turlari va moddalarining yuzaga kelishi ularning asosiy moliyaviy va investitsiya faoliyatidan kelib chiqadi. Ishlab chiqarish korxona xarajatlari asosan xom-ashyo, materiallar, yoqilg`I va mehnatga haq to`lash xarajatlaridan iborat bo`ladi.

Respublikamizda xarajat moddalari O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan³

³ O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 25-dekabrda 567-sonli qarori bilan o`zgartirish kiritilgan.

“Mahsulot (ish, xizmat)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to`g`risida”gi Nizomga asoslanadi.

Bu nizomga asoslangan holda barcha xarajat moddalarini quyidagicha ifodalash mumkin.

1. Mahsulotlarni ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar:

- bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;
- bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari;
- boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan, ishlab chiqarish yo`nalishidagi ustama xarajatlar;

2. Davr xarajatlari:

- sotish xarajatlari;
- ma`muriy xarajatlar;
- boshqa operatsion xarajatlar.

3. Moliyaviy faoliyat bo`yicha xarajatlar:

- foizlar bo`yicha xarajatlar
- xorijiy valyuta operatsiyalaridan yuzaga keladigan salbiy kurs farqlari;
- qimmatli qog`ozlarga qo`yilgan mablag`larni qayta baholash;

Moliyaviy faoliyat bo`yicha xarajatlar.

4. Favqulotda zararlar.

Mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxiga qo`shiladigan xarajatlar ishlab chiqarish yoki mahsulot (ish, xizmat)ni qayta ishlashda foydalaniladigan tabiiy va mehnat resurslari, xom-ashyo va materiallar, yoqilg`i va energiya, asosiy vositalar hamda ishlab chiqarishga tegishli boshqa xarajatlarning bahosini ifodalaydi.

Ushbu xarajatlar iqtisodiy mazmuniga ko`ra quyidagicha tartibda guruhlanadi:

- ishlab chiqarish moddiy xarajatlari;
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo`lgan mehnatga haq to`lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli bo`lgan ijtimoiy sug`urta ajratmalari;
- asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo`lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo`lgan boshqa xarajatlar.

Xo`jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy faoliyat bo`yicha xarajatlar muomalalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun quyidagi schetlar belgilangan:

9610 – Foizlar ko`rinishidagi xarajatlar;

9620 – Kurs farqlaridan zararlar;

9630 – Qimmatli qog`ozlarni chiqarish va tarqatish bo`yicha xarajatlar;

9690 – Moliyaviy faoliyat bo`yicha boshqa xarajatlar.

Mazkur schetlar transit schetlar bo`lib, aktiv xarakterga ega. Ularning debit aborotlari xo`jalaik muomalalari natijasida sodir bo`lgan moliyaviy xarajatlarni, kredit oborotlari esa ularning hisobdan chiqarilishini ifodalaydi.

Korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlari qo`yilgan vazifalarga muvofiq xarajat elementlari va kalkulyatsiya moddalariga bo`linadi.

Xarajatlarni elementlari bo`yicha guruhlash ishlab chiqarish xarajatlarni iqtisodiy mazmuniga qarab aniqlash va tegishli schetlar tuzishga asos bo`ladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini kalkulyatsiya moddalari bo'yicha guruhlash esa mahsulotlar tannarxini aniqlashga xizmat qiladi. Mazkur xarajatlar xom-ashyo va materiallarni tayyorlash, qayta ishlash, yaroqsiz mahsulotlarni tuzatish, yarim tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lmagan xarajatlarga korxonaning madaniy-maishiy obyektlariga sarflanadigan xarajatlar kiradi.

Shuningdek, korxonalarda xarajatlar mahsulot tannarxiga kiritilishiga ko'ra bevosita va bilvosita xarajatlarga ajratiladi.

Bevosita xarajatlar tarkibiga korxonalarda mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lgan xom-ashyo va materiallar, mehnatga haq to'lash (ajratmalar bilan birga) ishlab chiqarishda foydalanilayotgan asosiy vositalar amortizatsiyasi kabi xarajatlar kiradi.

Bevosita moddiy xarajatlar ishlab chiqarilgan mahsulot (ish va xizmat)larning asosini tashkil etib, uning tarkibiga kiradigan yoki mahsulotlar tayyorlash, ish bajarish va xizmat ko'rsatishda foydalaniladigan, chetdan sotib olinadigan xom-ashyo va material xarajatlarini ifodalaydi.

Bilvosita xarajatlar esa mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar hisoblanib, ularga ma'muriy-boshqaruv xarajatlari, boshqaruv asbob-uskunalarini saqlash va foydalanish xarajatlari kiradi.

Rejalashtirilishiga qarab xarajatlarni qisqa va muddatli xarajatlarga ajratish mumkin. Qisqa muddatli xarajatlar korxonaning taktik maqsadlarini amalga oshirishga imkon beradi. Uzoq muddatli xarajatlar esa korxonaning strategic maqsadini amalga oshirishda yuzaga keladi. Ularga ilmiy tekshirishlar, yangi texnologiyalarni olib kirish va rivojlantirish, tayyor mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlar kiradi.

Korxonalar faoliyatida yarim o'zgaruvchan xarajatlar ham yuzaga keladi. Yarim o'zgaruvchan xarajatlar bir vaqtning o'zida ham o'zgaruvchan, ham doimiy xarajat xususiyatiga ega bo'lgan xarajatlar hisoblanadi. Ularga telefon xizmati xarajatlarini kiritish mumkin. Bunda bir oylik aniq to'lanishi lozim bo'lgan summa-doimiy xarajatlar, shaharlararo va xalqaro so'zlashuv xarajatlari esa o'zgaruvchan xarajatlar guruhiga kiritiladi.

Smeta kalkulyatsiyasidan mahsulot ishlab chiqarish yoki ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va kelgusi davrlarda sarflanadigan xarajatlar smetasini tuzishda foydalaniladi. Ushbu usul korxonada yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish, mahsulotlar bahosini belgilash va ishlab chiqarish jarayonining iqtisodiy samaradorligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Ishlab chiqarish yo'nalishdagi hamma xarajatlar mahsulot tannarxiga kiritiladi. Bu esa ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarni to'liq va o'z vaqtida hisobga olish, shuningdek, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni tejash hamda ulardan samarali foydalanish ustidan nazorat qilishga imkon beradi.

Odatda ishlab chiqarish xarajatlari mahsulot ishlab chiqarishni tayyorlashdan boshlab uni tayyor mahsulot holida omborga qabul qilingungacha bo'lgan xarajatlar yig'indisidan iborat bo'ladi va ular mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasi va ishlab chiqarishning xususiyatiga qarab har xil bo'ladi.

Xarajatlarning salmog'i ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga, tannarx esa korxonaning daromadiga ta'sir qiladi. Shu sababli ularni to'g'ri hisobga olish

muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda xarajatlarning tarkibi va turlarini bilish zarur.

Hozirgi vaqtda Respublikamizning hamma korxonalarida ularning faoliyatini hisobga oluvchi asosiy hujat – “Mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga qo`shiladigan, uni ishlab chiqarish va sotish bilan bog`liq bo`lgan xarajatlarning tarkibi va moliyaviy natijalarini shakllantirish tarkibi quyidagi maqsadlar uchun aniqlanadi:

- buxgalteriya hisobi hujjatlarida va schetlarida bevosita mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonida yuzaga keladigan xarajatlar haqida to`liq va aniq ma`lumotlar to`plash;

- korxonalar faoliyatini rentabelligini hisoblash;
- raqobatbardoshligini aniqlash;
- soliqqa tortish asosini to`g`ri belgilash;
- Ushbu vazifalarni yechish uchun xarajatlar quyidagi guruhlariga bo`linadi:
- mahsulotni ishlab chiqarish tannarxiga qo`shiladigan xarajatlar;
- Davr xarajatlari tarkibida hisobga olinadigan va asosiy faoliyat foydasini aniqlashda e`tiborga olinadigan xarajatlar;

- korxonaning umumiy faoliyatidan foyda yoki zararni aniqlashda hisobga olinadigan favqulotda ko`zda tutilmagan zararlar yoki foyda.

Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari o`z navbatida bir necha ko`rsatkichlari bo`yicha guruhlariga ajratiladi.

Korxonalarda xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlari, davr xarajatlari, moliyaviy faoliyat xarajatlari va favqulotda (ko`zda tutilmagan) xarajatlarga bo`linadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari o`z vazifasiga qarab elementlari va kalkulyatsiya moddalariga bo`linadi. Elementlari bo`yicha guruhlash ishlab chiqarish xarajatlarini ularning iqtisodiy mazmuniga ko`ra aniqlash va tegishli smetalar tuzish uchun xizmat qiladi. Kalkulyatsiya moddalari bo`yicha guruhlash esa mahsulot tannarxini hisoblash uchun kerak bo`ladi.

Korxonalarda xarajatlar ishlab chiqarish va ishlab chiqarishdan tashqari xarajatlarga bo`linadi. Ishlab chiqarish xarajatlariga bevosita mahsulotni tayyorlash va qayta ishlash bilan bog`liq xarajatlar, ishlab chiqarishdan tashqari xarajatlarga esa madaniy-maishiy obyektlar xarajatlari kiradi.

Yuqorida ta`kidlanganlar buxgalteriya hisobi tuzilishda xarajatlar turli xil yo`nalishdagi maqsadlar uchun guruhlanishidan dalolat beradi. Bu narsani amaliyotda keng joriy etish boshqaruvchilarga ishlab chiqarishni boshqarish borasida asoslangan qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

Korxonalarning boshqaruvchilari bozor iqtisodiyoti sharoitida xarajatlar va ularni maqsadi haqida aniq ma`lumotlarga ega bo`lish kerak. Faqat bu ma`lumotlar asosidagina mahsulot (ish, xizmat) sotishdan keladigan foyda to`g`ri hisoblanishi, rentabellik to`g`ri aniqlanishi, sotilayotgan mahsulot bahosining asosli ekanligini tahlil qilinishi va umuman tanlangan xo`jalik siyosatining to`g`ri ekanligi baholanishi mumkin. Alohida bo`limlar (sexlar, ishlab chiqarishlar) xarajatlari haqidagi aniq ma`lumotlarga ega bo`lingandagina, ular rentabelligi yoki zararlimi, u yerga qo`shimcha mablag` ajratish kerakmi yoki rahbariyatni almashtirish

kerakmi yoki bo`lmasa butunlay yopish kerakmi, degan masalalarni hal qilish mumkin.

Xarajatlarni kalkulyatsiya moddalari bo`yicha hisobga olish, u yoki bu xarajat turi qanday maqsadlarga sarflanayotganini bilish, mahsulotning ayrim turlari tannarxini kalkulyatsiya qilish imkonini beradi.

Korxonalarda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning normativ, jarayonli, buyurtmali, to`liq tannarx, marjinal xarajatlarni umumlashtirish, xarajatlarni mutanosib taqsimlash, aralash kabi usullari mavjud.

Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning normativ usuli xarajatlar hisobi normativ usulining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bu usulning afzalligi unda hisob-kitoblarning oddiyligidir. Quyidagi sabablarni mazkur usulning kamchiliklariga kiritish mumkin:

- foydalanilgan zahiralar miqdori va ularga qo`yilgan baholar nazorati uchun me`yorlarning mavjud emasligi;
- chetlanish sabablari, uning aybdorlari, joyini aniqlash va tahlil etish imkoniyatining yo`qligi;
- ishlab chiqarish jarayonida xarajatlar hisob-kitoblari faqat hisobot davri oxirida o`tkazilishi mumkin va hokazo.

Normativ usulda normativ xarajatlar bilan haqiqiy xarajatlar o`rtasida yuzaga keladigan farq chetlanish deb ataladi.

Bir dona ishlab chiqarilgan mahsulotga to`g`ri keladigan normativ xarajatlar quyidagi elementlardan iborat bo`ladi:

- bevosita normativ moddiy xarajatlar;
- bevosita moddiy xarajatlarning normativ miqdori;
- normativ ish vaqti (bevosita mehnat haqi xarajatlari);
- ish vaqtining normallashtirilgan stavkasi;
- o`zgaruvchan umum ishlab chiqarish xarajatlarining normativ koeffitsiyenti;
- doimiy umum ishlab chiqarish xarajatlarining normativ koeffitsiyenti.

Ushbu usulni qo`llash quyidagi afzalliklarga ega:

- ishlab chiqariladigan mahsulotlar birligi tannarxining normativ kalkulyatsiyasini tuzish;
- amaldagi normalar va ulardan chetlanishlar bo`yicha xarajatlar hisobini yuritish;
- har bir xarajat turi bo`yicha norma va normativlarni o`rgatilganligi.

Ushbu usul normativ kalkulyatsiyalarni har bir buyum bo`yicha majburiy dastlabki tuzilishini ko`zda tutadi, ular hisobot davri boshida amal qiluvchi xarajatlar normalari asosida hisob-kitob qilinadi. Tashkiliy va ilmiy-texnik tadbirlarni tatbiq etish normalari va normativ xarajatlar yangilanishi bilan normativ kalkulyatsiyalar ham yangilanadi.

Shunday qilib mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning normativ usuli korxonalarda xarajatlar hisobi xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning haqiqiy tannarxini aniqroq hisoblashga imkon beradi, bundan tashqari bu usul xarajatlar bo`yicha chetlanishlarni batafsil tahlil etib, aniqlangan chetlanishlar va ularning sabablarini aniqlashga imkon beradi. Demak, ushbu usul xarajatlarni operativ nazorat qilish va chetlanishlarni boshqarish uchun qulaydir.

Rejali (taxminiy) tannarx bo'yicha xarajatlarni hisoblash usuli normativ usulga qaraganda ko'proq qo'shimcha afzalliklarga ega. Unda normativ hajmlarga nisbatan rejalashtirilgan hajmlarni chuqurroq asoslanganligi, taxminlar aniqligi nazorat samaradorligini oshirishni ta'minlaydi. U mavjud ishlab chiqarish resurslarini hisobga olgan holda materiallar, yoqilg'i, energiya, ish haqi va boshqa xarajatlarni progressiv normalridan kelib chiqib tashkil etiladi. Bu usulning asosiy afzalligi shundagi, unda rejali xarajatlar erishilgan natijaga emas, balki kelgusidagi taxminga asoslanadi.

Texnologik jarayonga nisbatan xarajat hisobini jarayonli va buyurtmalar bo'yicha tashkil etish mumkin.

Mahsulot tannarxini aniqlashning jarayonli usulidan mahsulot ishlab chiqarishda xom-ashyoning bir necha jarayondan o'tgandan keyin tayyor mahsulot holiga keladigan ishlab chiqarishlarda foydalaniladi.

Tannarxni kalkulyatsiya qilishning jarayonli usuli uzluksizdir. Bir necha bosqichdan iborat jarayonlar bo'yicha ko'p miqdordagi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarda qo'llaniladi. Bunda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish ikki usulda amalgam oshiriladi:

- o'rtacha hisob usuli. Mazkur usulda xarajatlar, shu jumladan, hisobot davri boshidagi qoldiq summasi ham qo'shib, shu davrda ishlab chiqarilgan shartli tayyor mahsulot birligiga bo'linadi;

- Fifo usuli. Bunda hisobot davri boshidagi tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig'i tugatiladi, so'ngra yangi mahsulot ishlab chiqarish amalgam oshiriladi. Fifo usulini qo'llashda birmuncha qiyinchiliklar mavjud, biroq o'rtacha hisob usuliga nisbatan aniqroq hisoblanadi.


Xarajatlar hisobi jarayonli usulining ikki varianti mavjud: yarim tayyor mahsulotli va yarim tayyor mahsulotsiz.

Yarim tayyor mahsulotsiz usulda har bir oldingi qayta ishlangan mahsulot keyingi qayta ishlov uchun yarim tayyor mahsulot hisoblanadi va u tashqariga sotilishi mumkin. Bu yarim tayyor mahsulotlarning haqiqiy, normativ yoki rejali tannarx bo'yicha baholash zaruratini belgilaydi. Bu variantda yarim tayyor mahsulotlar qiymati alohida 2100 – "O'zi ishlab chiqargan yarim tayyor mahsulotlar" nomli aktiv schetda aks ettiriladi.

Yarim tayyor mahsulotsiz usulda har bir qayta ishlov bo'yicha, asosan, faqat ishlov berishga ketgan xarajatlar olinadi. Tayyor mahsulot tannarxi xom-ashyo, dastlabki materiallar xarajatlari, barcha qayta ishlash xarajatlari va boshqa qayta ishlash xarajatlarini umumalashtirish bilan aniqlanadi. Bunda faqat tayyor mahsulot tannarxi kalkulyatsiya qilinadi.

Tannarxni kalkulyatsiya qilishni jarayonli usulini bir qancha misol, jadval yoki rasm ko'rinishida tasvirlasa bo'ladi. Quyida tannarxni jarayonli usuliga rasm orqali izoh beramiz.

Tannarxni kalkulyatsiya qilishni jarayonli usuli.



Xarajatlar hisobining buyurtmali usuli xususiy va mayday turkumli ishlab chiqarishda, shuningdek tajriba-eksperimental ishlab chiqarishda va ta'mirlash ishlarida qo'llanishi mumkin.

Buyurtmali usulning mohiyati, bir yoki bir necha xildagi mahsulotlarning uncha katta bo'lmagan turkumini tayyorlashda har bir buyurtma bo'yicha alohida xarajatlar hisobi amalgam oshiriladi.

Xarajatlarni hisobga olish va tannarxni kalkulyatsiya qilishning buyurtmali usuli quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- alohida buyurtmalar bo'yicha, shuningdek bir martalik mahsulot turi ishlab chiqarilayotganda qo'llaniladi;
- bu usulda xarajatlar muayyan hisobot (biro y, chorak, yil) oralig'ida emas, balki bajarilayotgan buyurtma davri bo'yicha aniqlanadi.
- qo'shimcha analitik ma'lumotlarni yig'ib borish uchun buyurtmalar kartochkasidan foydalanish mumkin. Ushbu buyurtmalar kartochkasidan xarajatlar tegishli javobgarlik markazlari bo'yicha yig'ib boriladi.

Xalqaro amaliyotda korxonalar moliyaviy xo'jalik faoliyatini schetlar tuzilishda tannarxni shakllantirish usuliga qarab xarajatlar hisobini to'liq yoki cheklangan tannarx (marjinal daromad usuli) bo'yicha tashkil etishlari mumkin.

To'liq tannarx bo'yicha xarajatlar hisobi usulida mahsulot tannarxiga doimiy va o'zgaruvchan, bevosita va bilvosita xarajatlarga bo'linadi, korxonaning barcha xarajatlari kiritiladi. Bevosita mahsulotga kiritib mo'lmaydigan xarajatlar avval ular kelib chiqqan javobgarlik markazlari bo'yicha taqsimlanadi, keyin esa tanlangan asosga mutanosib ravishda mahsulot tannarxiga kiritiladi.

To'liq tannarx bo'yicha xarajatlar hisobi usuli mamlakatimizda keng tarqalgan va moliyaviy hisob hamda soliqqa tortish bo'yicha normativ xujjatlar talablari va O'zbekistonda yuzaga kelgan an'analarga mos keladi. Biroq mazkur usul mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'zgarganda mahsulot birligi tannarxida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni hisobga olmaydi.

Xo`jalik yuritishning hozirgi sharoitida cheklangan tannarx, ya'ni marjinal usul bo'yicha xarajatlar hisobi usuliga alohida e'tibor berilishi zarur. Bu usulga muvofiq mahsulot tannarxiga korxona xarajatlarning hammasi kiritilmaydi, balki uning bir qismi – o'zgaruvchan xarajatlar kiritiladi. Ushbu usulda doimiy xarajatlarni mahsulot tannarxiga kiritmaydilar va shunday xarajatlar yuzaga kelganda o'sha davr foydasini kamaytirishga yo'naltiriladi.

Binobarin, mahsulotlarning sotish bahosi va o'zgaruvchan xarajatlar summasi o'rtasidagi farq qancha ko'p bo'lsa, marjinal daromad va rentabellik darajasi ham shuncha baland bo'ladi. Bundan tashqari xarajatlarning doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarga bo'linishi korxona faoliyatini boshqarish va tahlil qilishda muhim ahamiyatga kasb etadi, jumladan u assortiment tushunchasi siyosati, zararli faoliyat yuritgan holda yopib qo'yish yoki inqirozga uchraganligini e'lon qilish zarur.

Bu usulning asosiy afzalligi doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarning birlashishidan iborat. Ushbu xarajatlarni boshqarish quyidagi eng muhim vazifalarni hal etish imkonini beradi:

- mahsulot yoki buyurtma bahosining quyi chegarasini aniqlash;
- mahsulot foydaliligini qiyosiy tahlili;
- mahsulot ishlab chiqarish va sotishning qulay dasturini aniqlash;
- mahsulot yoki xizmatlarning o'z mahsuloti va ularning chetdan sotib olish o'rtasidagi tafovuti;
- ishlab chiqarish texnologiyasini iqtisodiy nuqtayi nazardan qulayligini ta'minlash;
- korxona raqobatbardoshligini zahirasi hamda zararsizlik nuqtasini belgilash va hokazo.

Korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kalkulyatsiya qilish usullari texnologiyasi va ishlab chiqarishni oqilonatashkil etishni taqazo etadi. Hozirgi paytda korxonalarda oddiy, jarayonli va buyurtmali usullar xarajatlarni hisobga olishi bog'lab olib borilmoqda.

2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schetining har bir mahsulot turiga ochilgan analitik schetlarida xarajatlar belgilangan xarajat moddalari bo'yicha hisobga olib boriladi.

Analitik schetlar mahsulotlarni qayta ishlashdagi texnologik jarayonlar bo'yicha ochiladi.

Xarajatlarni umumlashtirish usuli (oddiy usul)da mahsulot tannarxi mahsulotning alohida qismlari yoki ularni tayyorlash jarayoni bo'yicha aniqlanadi. Bu usul, odatda, bir xil mahsulot ishlab chiqarilganda qo'llaniladi.

Qo'shimcha mahsulotga xarajatlarni chiqarib tashlash usuli shundan iboratki, bunda ishlab chiqarishdan olinadigan mahsulotlar asosiy, qo'shimcha va yondoshlarga bo'linadi. Asosiy mahsulot tannarxini aniqlash uchun qo'shimcha mahsulot va chiqindilar oldindan belgilangan baholar bo'yicha umumiy xarajatlardan chiqarib tashlanadi.

Xarajatlarni mutanosib taqsimlash usuli mahsulotlarning bir necha turini bir vaqtni o'zida ishlab chiqarish sharti bilan ular tannarxini kalkulyatsiya qilish uchun qo'llaniladi. Ushbu usul asosan aralash mahsulotlar ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Bunda xarajatlar hisobi ishlab chiqariladigan mahsulotlar guruhi

bo'yicha tashkil etiladi, guruhlar ichidagi xarajatlar esa iqtisodiy jihatdan asoslangan, ba'zida mutanosib ravishda mahsulotlarning alohida turlariga taqsimlanadi.

Kalkulyatsiya qilishning aralash usuli yuqorida sanab o'tilgan usullarning har birini alohida qo'llash imkoni bo'lmasa yoki mahsulot tannarxini asosli hisobga olish ta'minlansa, ularning bir nechtasini o'zaro birikuvchini ifodalaydi.

1.2. Ishlab chiqarish xarajatlarining hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishni tashkil etish asoslari

Korxonalarning ishlab chiqarish jarayonida sodir bo`ladigan har bir muomalaning buxgalteriya hisobini yuritishda quyidagi schetlardan foydalaniladi:

- 2010 – “Asosiy ishlab chiqarish”;
- 2310 – “Yordamchi ishlab chiqarish”;
- 2510 – “Umum ishlab chiqarish”;
- 2610 – “Ishlab chiqarishdagi brak”;
- 3110 – “Oldindan to`langan ijara haqi”;
- 3120 – “Boshqa bo`lak xarajatlar”;
- 8910 – “Kelgusi xarajatlar va to`lov rezervi”.

Ishlab chiqarishning elementlari va kalkulyatsiya moddolari bo`yicha hisob yuritishni ta`minlash maqsadida asosiy ishlab chiqarishning barcha xarajatlari 2010-“Asosiy ishlab chiqarish” schetida tayyorlanayotgan mahsulot turlari bo`yicha guruhlanadi.

Misol uchun, paxtaga belgilangan chigit urug`i, mineral o`g`itlar, yoqilg`ilar to`g`ridan-to`g`ri 2010-schetda paxta deb ochilgan schetning debet tomoniga xarajatlar deb yoziladi. Agar bug`doyga sarf qilingan bo`lsa, 2010-schetda bug`doy degan analitik schetga yoziladi. Qishloq xo`jaligi ko`p tarmoqli bo`lib, chorvachilik tarmog`iga xuddi shunday 2010-bosh schetda yosh hayvonlarga qilingan xarajatlar ularni hisobga olinishiga qarab, yosh tug`ilganlarga qilingan xarajatlar, 1 yoshdan 2 yoshgacha qilingan xarajatlar va boshqalar, sut beradigan qoramollarga, qo`ylarga, otlarga, parrandalarni hisobga olinishiga qarab yem berilsa, arpa berilsa, ko`k o`t berilsa to`g`ridan-to`g`ri hayvonni qaysi turiga berilgan bo`lsa xarajatlar o`sha ochilgan analitik schetda hisobga olinadi. Shuning uchun, paxta chopig`ida ishlaganlarga ish haqi hisoblansa, paxta terganlarga ish haqi hisoblansa, paxta degan analitik schetning debet tomoniga yoziladi. DT-2010 paxta, KT-6710 ish haqi hisoblanadi. Bilvosita xarajatlar to`g`ridan-to`g`ri paxtaga yozilmasdan yig`ilib yoziladigan xarajatlarga brigadirga, ta`belchiga, bo`lim boshlig`iga va boshqa shunga o`xshashlarga yil davomida yozilib 2510-bosh schetni o`simlikchilik tarmog`ida hisobga olib boriladi, yil oxirida taqsimlash tartibi asosida taqsimlanib 2510-schet yopiladi. Bunday xarajatlarga bilvosita xarajatlar deyiladi. Bunday bilvosita xarajatlar chorvachilik tarmog`ida, sanoat ishlab chiqarish tarmog`ida ham bo`ladi.

Asosiy ishlab chiqarish schetining debetida mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko`rsatish bilan bevosita bog`liq bo`lgan xarajatlar, shuningdek, yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari, yaroqsiz mahsulotdan ko`rilgan yo`qotishlar va asosiy ishlab chiqarishni boshqarish va xizmat ko`rsatish bilan bog`liq bevosita xarajatlar aks ettiriladi.

2010-“Asosiy ishlab chiqarish schetining kreditida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot, bajarilgan ish va ko`rsatilgan xizmatning haqiqiy tannarxi summasi aks ettiriladi.

Yordamchi ishlab chiqarishdagi mahsulot (ish, xizmat) tannarxini aniqlash uchun tegishli xarajatlar 2300-“Yordamchi ishlab chiqarish hisobi” schetlarida guruhlanadi.

2300 - “Yordamchi ishlab chiqarish hisobi” schetlaridan quyidagi yordamchi ishlab chiqarishlarni hisobga olishda foydalaniladi:

- energiyaning har xil turlari (elektroenergiya, gaz va boshqalar) bilan yordam ko'rsatish;
- transport xizmatlarini amalgam oshirish;
- asosiy vositalarni ta'mirlash;
- instrumental, shtamplar, qurilish detallari tayyorlash;
- tosh, shag'al, qum va boshqa rudasiz materiallar qazib olish;
- yog'och materiallarini tayyorlash va ularga ishlov berish;
- qishloq xo'jalik mahsulotlarini tuzlash, qoqi qilish va konservalash (savdo korxonasida);
- maxsus kiyimlar va poyafzallarni ta'mirlash, tikish va boshqalar.

Shuningdek, mazkur schetlarda 21-sonli BHMSga muvofiq, xo'jalik yurituvchi subyektlar balansida turgan ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik bo'linmalari xarajatlari ham hisobga olinishi mumkin.

2300 - “Yordamchi ishlab chiqarish hisobi” schetlarining debetida mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va uni ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan bevosita xarajalar, shu bilan birga yordamchi ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan bilvosita xarajalar hamda yaroqsiz mahsulotlardan ko'rilgan zarar aks ettiriladi.

2300 - “Yordamchi ishlab chiqarish” schetlari debetlarnganda quyidagi schetlar kreditlanadi:

- 0200 - “Asosiy vositalarni eskirishi hisobi”;
- 0500 - “Nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi hisobi”;
- 1000 - “Materiallar hisobi”;
- 1100 - “O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlar hisobi”;
- 1610 - “Materiallar qiymatidagi og'ishlar”;
- 2510 - “Umum ishlab chiqarish xarajatlari”;
- 2610 - “Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulot”;
- 2810 - “Ombordagi tayyor mahsulot”;
- 3110 - “Istiqbol xarajatlari hisobi”;
- 3210 - “Muddati uzaytirilgan xarajatlar hisobi”;
- 4860 - “Da'volar bo'yicha olinadigan schetlar”;
- 6010 - “Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga to'lovlar”;
- 6500 - “Sug'urta va davlat maqsadli fondlariga to'lovlar hisobi”;
- 6710 - “Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar”;
- 6970 - “Hisobdor shaxslarga qarzlari”;
- 6990 - “Boshqa majburiyatlar”
- 6110 - “Alohida balansga ajratilgan bo'linmalarga to'lanadigan schetlar”
- 9390 - “Boshqa operatsion daromadlar”.

2300 - “Yordamchi ishlab chiqarish hisobi” schetlarining kreditida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot (ish, xizmat)ning haqiqiy tannarxi ko'rsatiladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida yordamchi ishlab chiqarish xo'jalikning asosiy ishini bajaradi. Yerni haydashdan boshlab, yer tekislash, ekish, ularni parvarish qilish, hosillarni terib olish va davlatga topshirish hamda daladan omborga keltirish va boshqa barcha ishlarni yordamchi ishlab chiqarishni amalga

oshiradi. Yordamchi ishlab chiqaruvchilarga quyidagilar kiradi: xo`jalikdagi remont ustaxonalari, asosiy vositalarni joriy ta'mirlash, avtomobil parki, elektr ta'minoti, suv ta'minoti, issiqlik, gaz ta'minoti va xo`jalik uchun zarur vazifalarni bajaruvchi yordamchi korxonalar shulardan iborat.

Yordamchi ishlab chiqarish tarmog`i yil davomida doimo ishlab chiqarish bilan chambarchas bog`liq bo`ladi. Hamma subyektlari bo`yicha har bir oyda foydalanilgan tarmoqqa belgilangan reja tannarxida o`tkazib boriladi.

Yordamchi ishlab chiqarish tarmoqlari bir-biriga xizmat qilsalar, reja tannarxida yozilgani o`zgarmaydi. Chorvachilik, dehqonchilik o`simlikchilik, sanoat korxonalariga va boshqa korxonalar tarmoqqa qilingan xizmati uchun albatta yil oxirida yordamchi ishlab chiqarishlarni haqiqiy tannarxi aniqlangan keyin yil davomida yozilgan reja tannarxi haqiqiy tannarxga tenglashtiriladi. Yordamchi ishlab chiqarishlar scheti 2310 bo`yicha yil davomida unga xarajatlar qilinadi. Bo`lgan xarajatlar 2310-schetining debet tomoniga yoziladi. Masalan:

t/r	Xo`jalik operatsiyalari mazmuni	Dt	Kt
1	Yordamchi ishlab chiqarishga materiallar sarf.	2310	1000
2	Yordamchi ishlab chiqarishdagi xodimlarga ish haqi hisoblansa	2310	6710
3	Hisoblangan ish haqiga nisbatan ijtimoiy sug`urta ajratmasi hisoblandi	2310	6510
4	Yordamchi ishlab chiqarishdagi asosiy vositalarni eskirgan summasiga	2310	0200
5	Asosiy ishlab chiqarishga olib borilsa	2010	2310
6	Umum ishlab chiqarishga tegishli bo`lsa	2510	2310
7	Mahsulot sotishga bog`liq summaga tegishli bo`lsa	9410	2310
8	Ma'muriy xarajatlarga olib borilsa	9420	2310

Umum ishlab chiqarish xarajatlari har bir korxonada, jamoa tarmoqni boshqarishga doir xizmat va xarajatlarni o`z ichiga oladi. Davr sarflari schetida xo`jlaikni hamma tarmoqlarining boshqarish va unga xizmat qilish xarajatlari kiradi. Davlat korxonalarida bunday xarajatlar limitlangan bo`ladi. Belgilangan limitlangan summa chegara hisoblanib, undan ortiq sarf etish mumkin emas. Yuqori tashkilot tomonidan hamda moliya tomonidan uni qisqartirish bo`yicha doim nazoratga olinib turiladi. Ortib qolgan summa davlat byudjetiga qaytariladi.

Umum ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish, umum ishlab chiqarish xarajatlari to`g`ridan-to`g`ri ekinlarga, mahsulotlarga yozish mumkin emas. Bo`lgan xarajatlar qatoriga kiradi. Chunki umum ishlab chiqarish xarajatlari xo`jaliklarining ayrim tarmog`iga, tarmoqlar ichida uning bir bo`lagiga xizmat qiladiganlarga qilingan xarajatlarni hisobga olib boradi. Umum ishlab chiqarish scheti yig`ib taqsimlovchi schetlar qatoriga kiradi. Shuning uchun xo`jalikda dehqonchilik, chorvachilik, sanoat ishlab chiqarish va boshqa tarmoqlar bo`lganligidan umum ishlab chiqarish tarmoqlariga ajraladi. Har bir tarmoqqa xarajatlar uchun alohida subschet ochilib, shu tarmoq uchun qilingan xarajatlar debetiga yoziladi. O`zini hisobga olgan tarmog`iga belgilangan tartibda yil oxirida

taqsim qilinadi. Umum ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga oladigan schetda qoldiq qolmaydi.

Ushbu yuqoridagi xarajatlardan alohida analitik schetlar ochilib qilingan xarajatni debet tomoniga yoziladi. Umum tarmoqqa mo'ljallangan asosiy vositalarni saqlashda, binolarni inshootlarni, dehqonchilik uchun mo'ljallangan agronomiya laboratoriyalarni, chorvachilikda veterinariya, veterinariya aptekalari, ularga berkitilgan avtomashina xarajatlari va asosiy vositalarni amortizatsiya summolari hisobga olinadi.

Yengil transportni saqlash. Bu moddaga yengil avtomashinalar, motosikl uchun sarflanadigan hamma xarajatlar hisobga olinadi. Yoqilg'i xarajati balon yamash, raqam olish xarajati, akkumlyatorlarni zaryadlash xarajati va umum tarmoqqa doir xarajatlar kiradi.

Dala shiyponlarini saqlash moddasiga vaqtincha qurilgan nokapital xarajatlari bin ova inshootlarni jihozlash xarajatlari kiradi (palatkalar, furgonlar, vagon uychalar, yig'ma binolar). Dala shiyponidagi asosiy vositalarni amortizatsiya summasi ham kiradi.

Transport xizmati ko'rsatiladigan ishlar:

- bir hududdan boshqa hududga olib borish;
- traktor va kombaynlar uchun suv va yoqilg'i tashib berish;
- mehnatkash xalqni dala shiyponiga olib borish, olib kelish xarajatlari;
- chorvachilik tarmog'ini bir joydan boshqa joyga ko'cherish xarajatlari kiradi.

Umum ishlab chiqarish uchun materiallar sarflansa DT 2510, KT 1000 bo'ladi. Joriy yil yoki yil oxirida umum ishlab chiqarish xarajatlari asosiy ishlab chiqarish tarmog'iga taqsimlansa DT 2010, KT 2510 kelgusi davr xarajatlari debet 2310, KT 2510, tabiiy ofatdan ko'rilgan zararlar (sug'urta qilinmagan) summasi foydadan kamaytirilganda DT 9720, KT 2510.

Umum ishlab chiqarish xarajatlari uchun xarajat moddali belgilangan bo'ladi. Bu moddalar quyidagilardan iborat:

- tarmoq boshqaruv apparatini saqlash;
- tarmoqni boshqa xodimlarini saqlash;
- mehnat muxofazasi va xavfsizlik texnikasi;
- arzon baholi, tez eskiradigan buyumlarning tez eskirishi;
- umum tarmoqqa mo'ljallangan asosiy vositalarni saqlash;
- yengil transportni saqlash;
- dala shiyponlarini saqlash (dehqonchilik uchun);
- transport xizmati ko'rsatiladigan ishlar.

Tarmoqning boshqaruv apparatlarini saqlashda dehqonchilik uchun agronomik uchastka boshliqlarini, umum ishlab chiqarishda xizmat qilayotgan buxgalterlarni, ta'belchilarni hamda bo'lim bo'yicha xizmat qilayotgan boshqa xizmatchilarga hisoblangan asosiy va qo'shimcha ish haqlari hisobga olindi.

Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi moddasiga to'siqlar, agregatlar, signalizatsiya, ventilyatsiya va shunga o'xshashlarga sarflanadigan xarajatlar hisobga olinadi.

Ishlab chiqarish sanitariyasi sovuq dush qurilmasi, yuvinish uchun suv tashish moslamasiga qilinadigan xarajatlar hamda plakatlar sarfi kiradi. Inventarlar

fartuk, etak, brezent, belkurak, xaskash va boshqa shunga o`xshashlarning tuzilgan summasiga yoziladi.

Davr sarflari scheti qandaydir korxona, jamoa xo`jaligi, kooperativ tashkil bo`ldi degan so`z bilan birga davr sarflari paydo bo`ldi. Chunki korxonani, jamoa xo`jalikni boshqarish vazifasi yuklanadi. Demak, xarajatlar ham boshlanadi. Davr sarflari deganda xo`jalikning hamma tarmoqlari bo`yicha rahbarlik qilinadi yoki, xizmat qilinadi deb tushuniladi. Shuning uchun davr sarflari deb ataladi.

Davr sarflari asosan quyidagilarni hisobga olib boradi:

1. Boshqaruv sarflari
2. Sotish sarflari
3. Boshqa operatsion sarflar. Jumladan, ilmiy tadqiqot ishlari va tajriba konstruktorlik ishlarni bajarishga bog`liq sarflar

Asosan bu schetga hisobga olib boriladigan tijorat sarflari (savdo tashkilotlari uchun muomala sarflari) hamda oldin balans foydasiga olib borilgan korxonaning ixtiyorida qoldiriladigan foyda va foyda hisobidan tashkil etiladigan maxsus fondlar hisobidan qilinadigan ayrim sarflar hisobga olinadi. Umum xo`jalikni boshqarishga doir xarajatlar bor. Ular quyidagilardan iborat:

1. Xo`jalik bo`yicha boshqaruvchi va boshqa turdagi xizmat qiluvchilarga nisbatan ish haqi.

2. Xizmat safariga bo`lgan xarajat.
3. Zarur bo`lganda bir joydan ikkinchi joyga bo`lgan xarajatlar
4. Konselyariya, tipografiya, telegraf va telefon xizmatlari va boshqalar kiradi.
5. O`t o`chiruvchi, qorovul, farrosh va boshqalarga qilingan xarajatlar kiradi.

Xo`jalik xarajatlariga ombor ishchilari, aloqachilar, aloqa tashuvchilar, ish haqi va ijtimoiy sug`urtasi, asosiy vositalarni amortizatsiyasi, saqlash xarajatlari, ko`priklar, yo`llar amortizatsiyasi hisobga olinadi. Umum xo`jalikka xizmat qiladigan bino va inshootlarni joriy, ta`lim xarajatlari, isitish, yoritish, suv bilan ta`minlash, kanalizatsiya va shunga o`xshash xarajatlar kiradi.

1. Umumxo`jalik xarajatlari uchun materiallar sarf etilganda DT-9420, KT-1000 bo`ladi.

2. Bajarilgan ish va xizmatlar uchun DT-9420, KT-2310, 2710. Sarflangan aloqa markalari summasiga DT 9420, KT-5610.

3. Transport-tayyorlov xarajatlarini xaridor tomonidan qoplanadigan summasiga DT-4010, Kt-9410.

4. Yil oxirida 9400-schet yopilganda DT 9900 KT 9400 bo`ladi.

Bozor islohotlarini chuqurlashtirish jarayonida korxona faoliyatida muhim vazifalardan biri ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tannarxini to`g`ri aniqlashdir. Mahsulot tannarxi uni ishlab chiqarishga qilingan bevosita xarajatlarning yig`indisidan iborat.

Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish va xarajatlarni hisobga olish boshqaruv hisobining asosiy unsurlaridan biri hisoblanadi, chunki ishlab chiqarilayotgan mahsulotning tannarxi quyidagialr bo`yicha boshqaruv qarorlarining qabul qilinishi uchun asos bo`ladi:

- qanday turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo`lga qo`yish, qaysilarini esa to`xtatish bo`yicha;

- zarur yordamchi mahsulotlarni sotib olish yoki ishlab chiqarish maqsadga muvofiqlik to'g'risida;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotga baho belgilash borasida;
- ishlab chiqarishni yangi texnika bilan jihozlash bo'yicha;

Ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni rivojlantirish bo'yicha berilgan tavsiyalarni asoslashda.

Boshqaruv hisobida tannarx quyidagi asosiy obyektlar bo'yicha aniqlanadi:

- alohida bo'linmalar bo'yicha;
- alohida mahsulot turi bo'yicha.

Bunda xarajatni taqsimlash jarayoni ikki bosqichda amalga oshiriladi:

- xarajatlarni ular vujudga kelgan markazlar bo'yicha to'plash;
- xarajatlarni mahsulot turlari bo'yicha taqsimlash;

Xarajatni taqsimlash deganda, korxona faoliyatida vujudga kelgan xarajatlarni aniq obyektlari bo'yicha guruhlash jarayoni tushuniladi.

Xarajatlar obyekti sarflangan xarajatlar hisobga olinishi zarur bo'lgan tashkiliy bo'limdir.

Mahsulot (ish, xizmat)ning ishlab chiqarish tannarxi bevosita xarajatlar, resurslardan samarali foydalanishni talab qiladi. Korxonadagi moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish chiqarilayotgan mahsulotning tannarxini pasaytirish imkonini beradi.

Mahsulot tannarxini aniqlashda kalkulyatsion birlikni aniq belgilash muhim masala hisoblanadi.

Kalkulyatsiya birligi - bu kalkulyatsiya obyekti o'lchovidir. Uni tanlash mahsulotni tayyorlash xususiyatlari, nomenklatura kengligi, o'lchashda qo'llaniladigan birliklar, amaldagi andozalar va ishlab chiqariladigan mahsulotning texnik shartariga bog'liq bo'ladi.

Masalan, sut mahsulotlari bo'yicha kalkulyatsiya obyektlarini belgilashda ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlariga muvofiq, ularning nomi, yog'lilik darajasi va idishning turiga qaraladi. Aytaylik, bir metr qog'oz idishdagi 3,2% yog'lilikka ega sut, 0,5 metr sig'imdagi polietilen idishdagi 20% yog'lilikdagi smetana, 250 gr. og'irlikdagi o'rama qog'ozli yog'sizlantirilgan tvorog va hokazo.

Amaliy faoliyatda ishlab chiqarish korxonalari kalkulyatsiya birliklarining quyidagi guruhlaridan foydalanadilar:

- tabiiy birliklar – dona, kilogram, tonna, metr, kub metr, kilovatt-soat va h.k;
- shartli tabiiy birliklar – konservalar shartli bankalari va h.k.;
- foydalaniladigan birliklar – quvvat mahsuldorlik va h.k;
- ish birliklari – tashib keltirilgan yukning bir tonnasi, yo'l qoplamasining 100 metri va h.k;
- vaqt birliklari – mashina-kun, mashina-soat, norma-soat va h.k.

1.3. Ishlab chiqarish jarayonidagi nobudgarchiliklar hisobi va ularni ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga o`tkazish tartiblari.

Buxgalteriya hisobining vazifalaridan biri daromad keltirilmaydigan xarajatlar yaroqsiz mahsulotlar, bekor turib qolishlar, kamomad va moddiy boyliklarning buzilishdan ko`riladigan yo`qotishlarni o`z vaqtida topish va aniqlashdan iboratdir. Bunday ma'lumotlar subyekt mablag`larining samarasiz sarflanishi sabablari va aybdorlarini bilib olishga imkon beradi.

O`z sifati jihatidan belgilangan standartlar yoki texnik shartlarga mos kelmaydigan, asosiy maqsadi bo`yicha foydalanib bo`lmaydigan yoki yaroqsiz mahsulotni tuzatish uchun qo`shimcha chiqimlar qilingandan so`ng foydalansa bo`ladigan mahsulotlar, yarim tayyor mahsulotlar, detallar, uzellar va ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar hisoblanadi.

Yaroqsiz mahsulotlar ishlab chiqarish resurlarining samarasiz chiqimlarini tashkil qiladi. U yaroqsiz mahsulot ishlab chiqarishning hajmini kamaytiradi va uning tannarxini oshiradi.

Mahsulotni texnik qabul qilishda aniqlangan nuqsonning darajasiga qarab yaroqsiz mahsulotlar tuzatsa bo`ladigan va tuzatib bo`lmaydigan turlari mavjud.

Tuzatish uchun qo`shimcha chiqimlar qilingandan so`ng o`z joyida foydalanish mumkin bo`lgan mahsulot tuzatsa bo`ladigan yaroqsiz mahsulotlar jumlasiga kiradi. Tuzatishning texnik jihatdan imkoni yo`q yoki iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo`lmagan mahsulotlar, yarim tayyor mahsulotlar va ishlar tuzatib bo`lmaydigan yaroqsiz mahsulotlar hisoblanadi.

Aniqlash joyiga qarab yaroqsiz mahsulotni tayyorlagan subyektida aniqlangan ichki, ya'ni mahsulotga ishlov berish, uni yig`ish, montaj qilish yoki ishlatish jarayonida aniqlangan va xaridor tomonidan aniqlangan tashqi xillarga bo`linadi.

Yaroqsiz mahsulotni qabul qilish jarayonida texnik bo`limi nazoratchisi yoki ishlab chiqarishdagi ustalar aniqlaydi. Yaroqsiz mahsulot dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi, unda yaroqsiz deb topilgan mahsulotning nomi, miqdori, yaroqsizlik darajasi, paydo bo`lish sabablari va aybdorlari shuningdek yaroqsiz mahsulotning tannarxini moddalari bo`yicha kalkulyatsiyalash uchun zarur ma'lumotlar ko`rsatiladi.

Yaroqsiz mahsulotni baholash, kalkulyatsiyalash, uning o`rnini qoplash summasini va undan ko`riladigan yo`qotishlarni aniqlash uchun 2610 – "Ishlab chiqarishdagi (brak) yaroqsiz mahsulotlar" aktiv kalkulyatsiyalash scheti qo`llaniladi. Bu schetning debet tomonida uzil-kesil brak qilingan mahsulotning tannarxi, brakni tuzatish uchun sarflangan xarajatlar, belgilangan me'yorlarga qo`shimcha ravishda jihozlarni sozlashda ishdan chiqqan materiallar va yarim tayyor mahsulotlarning qiymati, foydalanish kafolati bilan chiqarilgan mahsulotni tuzatish uchun belgilangan kafolatni tuzatish me'yoridan ortiqcha sarflangan xarajatlar aks ettirilgan bo`ladi.

Ichki uzil-kesil brak ishlab chiqarish tannarxi bo`yicha, tuzatsa bo`ladigan brak esa sex narxi bo`yicha kalkulyatsiya qilinadi.

2610 - "Ishlab chiqarishdagi brak" schetining kredit tomoni bo`yicha brakdan yo`qotishlarni o`rnini qoplash summalari: aybdorlarning mehnat haqidan

ushlab qolishlari, uzil-kesil brakdan olingan chiqindilarning foydalanish mumkin bo'lgan narsa bo'yicha qiymati, mahsulot yetkazib beruvchilar va brakni kelib chiqishiga aybdor bo'lgan boshqa subyektlar tomonidan qondirilgan yoki tan olingan savdo summalari hisobga olinadi.

Bekor turib olishlar deganda, jihozlar, sexlar yoki butun ishlab chiqarishning rejalashtirilmagan to'xtashi munosabati bilan mexanizmlar va ishchi kuchining noiloj ishlamasligi tushuniladi.

Bekor turib qolishlar ular haqidagi varaqlar yoki dalolatnomalar bilan rasmiylashtiriladi. Unda ishchilarning ismi sharifi va table raqami, ishlamay turgan stanoklarning xili va inventar raqamlari, bekor turib qolishning boshlanishi va tugash vaqti, subyektda ishlab chiqilgan nomenklaturaga muvofiq, uning sabablari va aybdorlarning kodlari ko'rsatiladi.

Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan bekor turib qolishlar va boshqa samarasiz xarajatlar ular ishlab chiqarishning qaysi bosqichida yuz bergani va bunga sabab nima ekaniga qarab 2510 - "Umum ishlab chiqarish xarajatlari" va 9400 - "Davr sarflarini hisobga oluvchi schetlar guruhidagi 9439 - "Boshqa muomalaviy sarflar" schetida hisobga olinadi.

Bekor turib qolishdan yo'qotishlarga ishlab chiqarishdagi ishchilarga bekor turilgan vaqti uchun to'lanadigan mehant haqi, ijtimoiy sug'urta ajratmalari, ishlab chiqarish to'xtatilgan davrda samarasiz sarflangan materiallar, yoqilg'i, energiya qiymati, mashina va jihozlarni asrash va ulardan foydalanish xarajatlarining bir qismi qo'shiladi. Tashqi sabablar tufayli hosil bo'ladigan bunday xarajatlar davr xarajatlari tarkibida (9439), ichki sabbalar tufayli vujudga kelganlari esa umumiy ishlab chiqarish chiqimlari (2510) tarkibida hisobga olinadi.

Bekor turib qolishlarni hisobga olish bo'yicha buxgalteriya o'tkazmalari quyidagicha bo'ladi. Ichki sabablar bilan bekor turib qolishlar bo'yicha.

2510 - "Umum ishlab chiqarish xarajatlari" yoki 9439-"Boshqa muomalaviy sarflar" schetining debeti, 1000-"Materiallar" schetlarining, 6520-"Ijtimoiy sug'urta bo'yicha hisoblashishlar", 6710-"Hodimlar bilan mehnatga haq to'lash bo'yicha hisoblashishlar" va boshqa tegishli schetlarning kreditida qayd qilinadi.

Tashqi sabablar tufayli bekor turib qolishlar yo'qotishlarning o'rnini qoplash yuzasidan mahsulot yetkazib beruvchilar va boshqa aybdorlarga da'volar topshirilganda tan olingan yoki to'langan da'volar summasiga quyidagi o'tkazmalar tuziladi.

4210 - "Da'volar bo'yicha olinadigan to'lovlar" schetining debeti va 2510 - "Umum ishlab chiqarish xarajatlari" scheti yoki 9439 - "Boshqa muomalaviy sarflar" schetining krediti.

2600 - "Ishlab chiqarishdan olingan foydalanishga yaroqsiz mahsulotlarni hisobga oluvchi schetning chizmasi.

2610 - "Ishlab chiqarishdan olingan yaroqsiz (brak) mahsulotlar"

Schectlarning kreditidan Debet	Schectlarning debetiga Kredit
1010, 1050, 1090-yaroqsiz mahsulotlarni tuzatish uchun xom-ashyo va meriallarning sarflanishi	Yaroqsiz mahsulotlarni 1010 hisobdan chiqarish natijasida foydalanish mumkin boʻlgan bahoda materiallarni qabul qilish
2110-Oʻzining ishlab chiqarishdagi yaroqsiz yarimfabrikatlarning hisobdan chiqarilishi	Yaroqsiz mahsulotlar-2010 qiymatining asosiy ishlab chiqarish sarflariga qoʻshilishi
2510 - Tuzatiladigan va tuzatilmaydigan yaroqsiz mahsulotlarning tannarxiga umum ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli ulushini olib boorish	Yaroqsiz mahsulotlar-2320 qiymatining yordamchi ishlab chiqarish sarflariga qoʻshilishi
2810-Xaridorlarga yaroqsiz deb topilgan mahsulotni berish natijasida uning tannarxini aks ettirish	Yaroqsiz mahsulotlar 4630 - larning qiymatini javobgar shaxslarning zimmasiga olib borish
5110, 5210, 5220, 5510, 5520 - Hisoblashish, valyuta va boshqa schetlardan yaroqsiz mahsulotlarni tashish, almashtirish, sarflarining toʻlanishi	Yaroqsiz mahsulotning 6710-qiymatini javobgar shaxs ishchining mehnat haqidan ushlab qolish
6010-Yaroqsiz mahsulotlarni tuzatish va kafolatni taʼmirlash sarflari yuzasidan mol yetkazib beruvchilarning schetini toʻlashga qabul qilish	Oldingi yillarda 9439-sodir boʻlgan va qoplanmagan yaroqsiz mahsulotlarning qiymatini zararga qabul qilish

II-bob. Nishon tuman “Qorako‘lchilik-naslchilik” qishloq xo‘jalik kooperativi (shirkat xo‘jaligi)da ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish holati

2.1. “Qorako‘lchilik-naslchilik qishloq xo‘jalik kooperativida chorvachilikni hisobga olishning sintetik va analitik hisobi.

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida yaratilayotgan mahsulotlarning asosiy qismi fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilayotganligi aholi va sanoat ehtiyojlarining qondirilishi davlat buyurtmasining amalga oshirilishining ushbu xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatida o‘z ifodasini topmoqda. Shu sababdan qishloq xo‘jaligining rivojlanishi tarmoq samaradorligini oshirish fermer xo‘jaliklarining ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan bevosita bog‘lanmoqda.

Erkin iqtisodiy munosabatlar sharoitida zamonaviy iqtisodiy qonunlar doirasida va yuksak talablar darajasidagi xaridorbop mahsulotlarni ishlab chiqarish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Shuning bilan birga hozirgi kunda yuzaga kelgan jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoiti xo‘jaliklarining barqaror rivojlanishini ta‘minlash qat‘iy tejamkorlik tizimi joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirish mexanizmini ishlab chiqish hamda pirovardida ishlab chiqarish xarajatlari samaradorligini oshirishga erishish lozim.

Chorvachilik tarmog‘ining sut, go‘sht va boshqa oziq-ovqat mahsulotlariga sanoatning esa xom-ashyo bo‘lgan talabini qondiradi.

Chorvachilik, o‘simlikchilik bilan bir qatorda qishloq xo‘jaligining muhim tarmog‘i bo‘lib, uning tarkibiga sut va go‘sht yo‘nalishidagi qoramolchilik, qo‘ychilik, cho‘chqachilik, parrandachilik, yilqichilik, asalarichilik, quyonchilik, ipakchilik, baliqchilik va boshqalar kiradi.

Chorvachilik xarajatlari 2000 – “Asosiy ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schetlar” hisobvarag‘ida “Chorvachilik” subyekti bo‘yicha ochilgan analitik schetlarda amalga oshiriladi.

1. “Mehnatga haq to‘lash va ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar” moddasida chorva mollarini o‘stirish, parvarishlash, boqish, sog‘ish, junni qirqish va shu kabi boshqa ishlar bilan band bo‘lgan ishchilar mehnatiga haq to‘lash hamda bu summalarga nisbatan hisoblangan tegishli ijtimoiy sug‘urta ajratmalari hisobga olinadi. Bu xarajatlar boshlang‘ich xujjatlar asosida bevosita tegishli chorva mollari va ish turlariga o‘tkaziladi.

Mehnatga haq to‘lash va ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar moddasida muayyan chorva turi yoki guruhlariga qarovchi turli toifadagi hodimlarga beriladigan to‘lovlar aks ettiriladi.

2. “Dori-darmonlar” moddasida, chorva mollar parvarishlashga sarflangan dori-darmon xarajatlari hisobga olinadi. “Chorva mollarini himoya qilish vositalari” moddasida xo‘jalikning o‘z mablag‘lari hisobidan sotib olinib sarflangan biopreparatlar, dori-darmonlar va dizenfeksiya vositalari va ularni ishlatish bilan bog‘liq sarflar hisobga olinadi.

“To‘lash materiallari” moddasida chorva mollari saqlanayotgan joylarda molar tagiga to‘shaladigan material xarajatlari kiritiladi.

3. “Yem-xashak” moddasida chorva mollarini boqish uchun sarflangan yem-xashaklar hisobga olinadi “Yem-xashak” moddasida xo’jalikning o’zida ishlab chiqarilgan va sotib olingan yem xashaklarning chorva-mollariga, parrandalarga va boshqa turdagi chorva mollariga sarflanishi hisobga olinadi. Yem xashak tayyorlash sexlarining xarajatlari xam shu moddaga alohida analitik schot ochilib hisobga olinadi va tayyorlangan yem-xashjak miqdoriga mutanosib ravishda taqsimlanadi,

4. “Ish va xizmatlar” moddasida chorvachilik fermalariga boshqa korxona va tashkilotlar tomonidan ko’rsatiladigan ishlab choiqish harakteridagi xizmatlarga haq to’lash xarajatlari aks ettiriladi. “Ish va xizmatlar”moddasida maskur chorevachilik tarmog’i uchun korxonaning o’z yordamchi ishlab chiqarishi bajargan ish va ko’rsatgan xizmatlarining qitmatlari hamda chet tashkilotlarining ko’rsatgan xizmatlariga to’lanadiga xaq hisoga olinadi ushbu xarajat moddasida yuk tranmsporti, ot-ulov transporti, traktorlarning traksport ishlari, suv ta’minoti, elektr taminoti, ta’mirlash ustaxonasi xarajatlari hisobga olinadi.

5. “Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari” moddasida bevosita ishlab chiqarishda ,foydalaniladigan asosiy vositalarni saqlash va ulardan foydalanish bilan bog’liq xarajatlar kiritiladi. Ularga bu asosiy vositalarga xizmat ko’rsatish va ulardan foydalanish xarajatlari, amartizatsiya ajratmalari va tuzatish xarajatlari kiradi.

Asosiy vositalarni saqlash va ulardan foydalani xarajatlariga asosiy vositalarga xizmat ko’rsatuvchi xodimlarning maehnat haqlari, ishtimoiy sug’urta ajratmalari, yoqilg’i va moylash materiallari, yordamchi ishlab chiqarish shuyningdek chet tashkilotlar xizmatlari va bo’shq xarajatlari kiritiladi.

Amartizatsiya xarajatlarini asosiy vositalar bo’yicha amortizatsiya ajratmalri tashkil qiladi.

Amortizatsiya ajratmalari har oyda alohida “Chorvachilikda ishlatiladigan asosiy vositalar bo’yicha taqsimlangan amortizatsiya” analitik schetida qayd etib boriladi. Yil oxirida asosiy vositalarni eskirish summasi chorva mollari guruhlariga va ish turlari bo’yicha hisoblanadi va bu maxsus qaydnoma orqali rasmiylashtiriladi. “Yordamchi ishlab chiqarish” schetida hisobga olingan joriy tuzatish xarajatlari amortizatsiy summasiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

6. “Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari” moddasida fermerda, tarmoqlarda ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari hamda butun korxonani boshqarish va ishlab chiqarishni tashkil etish xarajatlarining chorvachilikka tegishli qismi aks ettiriladi.

7. “Sug’urta to’lovlari” moddasida ish hayvonlari, yosh va mahsuldor molar, parrandalar va chorvachilikda foydalanilayotgan binolar, inshootlar va asbob uskunalarini majbyuriy sug’urtasiga doir to’lovlar aks ettiriladi.

8. “Boshqa xarajatlar” moddasida maxsulot yetishtirish bilan bog’liq bo’lgan lekin yuqoridagi xarajat moddalarida hisobga olinmagan sarflar aks ettiriladi.

9. “mollarni nobud bo’lishidan ko’rilganm zararlar” moddasida boquvda turgan yoshva katta yoshdagi mollarni nobud bo’lishidan ko’rilgan zararlar aks ettiriladi. Nobud bo’lgan chorva mollari uchun aybdor shaxslardan olinadigan summa va tabiy ofatdan ko’rilgan zararlar bu xarajat moddasiga yozilmaydi.

Chorvachilik xarajatlari bor va maxsulotlarni hisobga olishda yem xashak sarflanadi hisobga olish jurnali, amortizatsiya hisoblash vedenosti, yordamchi ishlab chiqarishlar bajargan ishlar uchun berilgan malumotnomalar, sog'ilgan sutni hisobga olish jurnali, tug'ilgan naslni kirim qilish aktlari va boshqa hudjatlar asos bo'ladi. Bu hudjatlar har oyda guruhlanib tarkibiy bo'linmaning shaxsiy schotida aks ettiriladi. Shaxsiy schotlar analitik hisob registiri bo'lib, jamoa yoki ijara pudratida ishlovchi tarkibiy bo'linmalar bo'yicha tuziladi.

Shaxsiy schetning 1-bo'limida oylik xarajatlar asosiy xarajat moddalari bo'yicha guruhlanib aks ettiriladi. Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari, amortizatsiya ajratmalari va arzonbaho tez eskiradigan buyumlar eskirishi kabilar alohida xarajatlar to'g'risidagi jami ma'lumotlar bir oylik va yil boshidan o'sib borishi tartibida aks ettiriladi.

Shaxsiy schetning 2-,7-daromadlar bo'limida asosiy, yondosh va ko'makchi mahsulotlarning chiqishi, ularning nomlari va miqdor reja tannarxi yoki hisob kitob bahosi bo'yicha qiymatlari bir oylik va yil boshidan ko'rsatib boriladi.

Chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlarining sintetik hisobi 2020 – “Asosiy ishlab chiqarish schetlari” tizimida olib boriladi. Nishon “Qorako'lichilik – Naslchilik” shirkat xo'jaligida ham schetlar tizimida chorvachilik sohalariga qarab turli schetlar ochilgan. Masalan: 2021 “Qo'ychilik”; 2022 “Qoramolchilik”.

Ishlab chiqarishning analitik hisobi chorvachilik sohalarining yo'nalishlariga qarab yuritiladi. Masalan, 2021 “Qo'ychilik” scheti bo'yicha quyidagi analitik schetlarini ochish mumkin: go'sht, nasl, teri va boshqalar

Nishon “Qorako'lichilik naslchilik” qishloq xo'jaligi kooperativida quyidagi ishlab chiqarish xarajatlari schotlarining debetida haqiqatda qilingan xarajatlar aks ettirilgan. Bunda mos ravishda xarajatlarning moddalariga ko'ra quyidagi yozuvlar qilingan.

№	Xojalik operatsiyasini mazmuni	Debet	Kredit
1	Material xarajatlariga	2021	1010-1090
2	O'stirishda va boquvda bolgan molar qiymatiga	2021	1110
3	Mehnat haqi xarajatlariga	2021	6710
4	Ichtimoiy sug'urta xarajatiga	2021	6520
5	Mollarni sug'urtalash xarajati	2021	6510
6	Ish xizmat xarajatlariga	2021	6010,6910
7	Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarini hisobdan chiqarilishi	2021	2310
8	Umumiy ishlab chiqarilish xarajatlarini hisobdan chiqarish.	2021	2510

Ishlab chiqarish xarajatlari schotlarining kreditida hisobot yili davomida olingan mahsulotlar reja tannarxi bo'yicha aks ettiriladi, yani quyidagi yozuv qilinadi:

Dt 2810 Kt 2021,2022

Hisbot yili oxirida chorvachilik ishlab chiqarishning har bir sohasi bo'yicha yetishtirilgan mahsulotlarni reja dtannarxi va haqiqiy tannarx o'rtasidagi farq so'mmalari hisob kitob qilinadi.

Chorvachilik tarmog'ida xarajatlar va olingan mahsulotlarni hisobga olishda ko'plab dastlabki xujjatlar qo'llaniladi. Bular asosan xarajatlar va olingan mahsulotlar hisobga olinadigan dastlabki hudjatlarga bo'linadi. Chorvachilikdagi xarajatlar mehnat buyumlari, mehnat vositalari va chorva xodimlarining mehnat haqi xarajatlardan iboratdir. Ushbu xarajatlar xususiyatiga ko'ra tegishli dastlabki hudjatlar bilan rasmiylashtirilib

Nishon "Qorako'lichilik naslchilik" qishloq xo'jaligi kooperativida quyidagi ishlab chiqarish xarajatlari schotlarining debetida haqiqatda qilingan xarajatlar aks ettirilgan. Bunda mos ravishda xarajatlarning moddalariga ko'ra quyidagi yozuvlar qilingan.

№	Xojalik operatsiyasini mazmuni	Debet	Kredit
1	Material xarajatlariga	2021	1010-1090
2	O'stirishda va boquvda bolgan molar qiymatiga	2021	1110
3	Mehnat haqi xarajatlariga	2021	6710
4	Ichtimoiy sug'urta xarajatiga	2021	6520
5	Mollarni sug'urtalash xarajati	2021	6510
6	Ish xizmat xarajatlariga	2021	6010,6910
7	Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarini hisobdan chiqarilishi	2021	2310
8	Umumiy ishlab chiqarilish xarajatlarini hisobdan chiqarish.	2021	2510

Ishlab chiqarish xarajatlari schotlarining kreditida hisobot yili davomida olingan mahsulotlar reja tannarxi bo'yicha aks ettiriladi, yani quyidagi yozuv qilinadi:

Dt 2810 Kt 2021,2022

Hisbot yili oxirida chorvachilik ishlab chiqarishning har bir sohasi bo'yicha yetishtirilgan mahsulotlarni reja dtannarxi va haqiqiy tannarx o'rtasidagi farq so'mmalari hisob kitob qilinadi.

Chorvachilik tarmog'ida xarajatlar va olingan mahsulotlarni hisobga olishda ko'plab dastlabki xujjatlar qo'llaniladi. Bular asosan xarajatlar va olingan mahsulotlar hisobga olinadigan dastlabki hudjatlarga bo'linadi. Chorvachilikdagi xarajatlar mehnat buyumlari, mehnat vositalari va chorva xodimlarining mehnat haqi xarajatlardan iboratdir. Ushbu xarajatlar xususiyatiga ko'ra tegishli dastlabki hudjatlar bilan rasmiylashtirilib boriladi. Masalan, sarflangan yem hashakning dastlabki hisobi yem-hashak vedmostida, yig'ma hisobi esa ularni hisobga oladigan maxsus jurnalda yuritiladi. Ushbu chorva mollarining har bir turi va guruhi uchun alohida betlar ajratilib sarflangan yem-hashak miqdori ularning ozuqa birligiga va hazm qiluvchi proteiniga aylantirilgan miqdori shuningdek ozuqa kunlari soni ko'rsatiladi. Bu jurnalning jamlangan ma'lumotlariga asosan yem-hashak sarflarini hisobga olish yig'ma vedmosti tuziladi.

Chorvachilikda sarflangan boshqa moddiy boyliklar (dori-darmonlar, biopreparetlar va boshqalar) belgilangan tartibda limit-zabor kartalari va nakladnoylar bilan rasmiylashtiriladi.

Chorvachilik mehnatiga haq to'lash yetishtirilgan maxsulotlar miqdoriga va sifatiga qarab amalga oshiriladi. Shuning uchun chorvachilikda olingan maxsulotlarni rasmiylashtiradigan xujjatlar (tug'ilgan hayvon bolalarini vaznini o'lchash vedmosti, chorva mollarini guruhdan o'tkazish akti va boshqalar) mehnatga haq to'lash uchun asos bo'ladi. Chorvachilik xodimlari ishlagan vaqtining hisobi har kuni ish vaqtini hisobga olishi tabelida yuritiladi.

Ushbu xarajatlarga asosan chorvachilik xodimlariga mehnat haqi hisob kitobi tuziladi.

Chorvachilikda ishlab chiqarish xarajatlarining analitik hisobi chorva mollarining turlari, yosh va jinsiga qarab ochilgan analitik schotlarda quyidagi harajat moddalari bo'yicha yuritiladi.

1. Mehnat haqi xarajatlari ichtimoiy sug'urta ajratmalari bilan birga, odam-soati.
2. Ozuqalar , ozuqa birligi
3. Chorva mollarini himoya qilish vositalari.
4. Ishlar va xizmatlar.
5. Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari.
6. Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari.
7. Sug'urta lo'lovlari.
8. Boshqa harajatlar.
9. Hayvonlarni yaroqsizlikka chiqarish va o'lishdan kelib chiqqan to'qotishlar.

Chorvachilikdagi xarajatlarning analitik hisobi ishlab chiqarish hisobotiga o'xshash xarajatlar va maxsulot chiqishning analitik hisobi vedemosti yoki shaxsiy schotda yuritiladi. Ular ishlab chiqarish xarajatlari yuqoridagi moddalar bo'yicha guruhlanib analitik hisob obyektlari va tarkibiy bo'linmalari bo'yicha tuziladi hamda xudjat aylanish grafigiga muvofiq belgilangan muddatda markaziy buxgalteriya topshiriladi. Bu vedemostlarda xarajatlarning miqdor va qiymat ko'rsatkichlari yoziladigan qatorlar, hisob obyektlari va tarkibiy bo'linmalarni ajratish yozish uchun tegishli grfalar ajratilgan.

Ishlab chiqarish xarajatlari vedemosti ikki xil: yil boshidan, hisobot oygacha va hisobot oyida kabi ko'rsatkichlar ko'rinishida yoziladi. Bu esa xarajatlarni nazorat qilish va davomidagi hamda yillik buxgalteriya hisobotini tuzishda maxsulot tannarxini hisoblash imkonini yaratadi.

Markaziy buxgalteriyada chorvachilik turlari bo'yicha analitik hisob yig'ma vedemost yoki yig'ma shaxsiy schyotda yuritiladi.

2.2. Chorvachilik maxsulotlari tannarxini kalkulyatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatlari.

Chorvachilikdan olingan maxsulotlar asosiy va yordamchi maxsulotlarga bo'linadi.

Chorvachilik tarmog'i asosiy maxsulot deganda chorvachilikning iqtisodlashgan sohasini yuritishda olinishi bosh maqsad qilib olingan maxsulot turi tushiniladi. Chunonchi qoramolchilikda bosh maxsulot bo'lib go'sht, sut, nasl (buzoq) o'sgan vazn hisoblanadi. Parrandachilikda tuxum va parranda go'shti bosh maxsulot hisoblanadi. Qo'ychilikda bosh maxsulot bo'lib o'ringan qo'zi va jun hisoblanadi.

Chorvachilik sohasida yordamchi maxsulot deganda asosiy maxsulot bilan bir vaqtda olinadigan, ammo xususiyatiga ko'ra ikkinchi maxsulot tushiniladi. Masalan gung, pat, qil, teri va boshqalar. Chorvachilikda uning har sohasi, bu sohalarning alohida yo'nalishlarida kalkulyatsiya obyekti bo'lib turli mahsulotlar hisoblanadi. Quyida chorvachilikning atrim sohalari va yo'nalishlarida mahsulot maxsulot tannarxini aniqlash usullari va tartibini ko'rib chiqamiz. Sut yonalishdagi yirik shoxli qoramolchilik sohasida kalkulyatsiya obyekti bo'lib sut va nasl (buzoq) hisoblanadi. Bu sohada tannarxni kalkulyatsiy qilish birligi bo'lib 1 sentner sut hamda bir bosh nasl (buzoq) hisoblanadi. Ushbu maxsulotlarning tannarxi ikkita usulda aniqlanadi:

1-usul. Shartli maxsulot tannarxi orqali hisoblash.

2-usul. Har bir maxsulot tannarxini individual hisoblash usuli.

Sut yo'nalishidagi qoramolchilikdan olingan sut va buzoqning tannarxini aniqlashning 2 usuli hozirgi paytda respublikamizda keng qo'llanilmoqda. Bu usulga muvofiq olinga sut va buzoq tannarxini aniqlash uchun dastlab sut yo'nalishidan qoramolchilikka sarflangan jami haqiqiy harajatlar (yordamchi maxsulotlar qiymati chegirilgan holda) aniqlanadi. Shundan so'ng jami haqiqiy harajatlarning 10 foizi buzoq tannarxiga olib boriladi.

O'stirilayotgan va buzoqdagi chorva mollarining, tirik vazni, qo'yilgan vazni va molning umumiy masalasi tannarx hisoblash obyektlari bo'lib hisoblanadi.

Qo'yilgan tirik vaznining tannarxi ushbu hisob guruhidagi mollarni saqlash xarajatlari umumiy summasini (qo'shimcha maxsulot qiymati chegirib tashlangan holda) qo'shilgan tirik masalaga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Tirik vazn tannarxini hisoblash shuning uchun ham zarurki o'stirilayotgan vazn va boquvdagi chorva mollarining har bir turi bo'yicha 1100 „O'stirilayotgan va boquvdagi chorva mollari“ schyoti bo'yicha hisob yuritishda har xil baholar qollaniladi. Masalan olingan buzoq uning olingan bosh sonidan qat'iy nazar sut sut yonalishidagi asosiy podaga qilingan xarajatning 10 foizi bo'yicha tannarxi aniqlanadi. Buzoqning qo'shilgan vazni rejadagi qo'shilgan vazn tannarx bo'yicha baholanadi. Sotib olingan buzoqlar esa haqiqatda sotib olingan baholarda kirim qilinadi. Boquvga qabul qilingan katta yoshli mol va o'tgan yilgi yosh mollar yil boshidagi bir sentnertirik vazni o'tgan yillardagi o'rtacha tannarxi bo'yicha hisobga olinadi.

Go'sht yo'qolishidagi yirik shoxli qora molchilik sohasida kalkulyatsiya obyekti bo'lib o'tgan vazni, 8 oygacha bo'lgan buzoqlar va tirik vazn, shuningdek 8 oydan oshgan yosh mollar bo'yicha ularning o'sgan vazni va tirik vazni hisoblanadi.

Qo'ychilik va echkichilik mahsulotlarining tannarxi asosiy podadagi va yosh qo'y-echkilarni parvarishlash hamda ularning junini qirqish bilan bog'liq xarajatlardan iborat.

Bu tarmoqda quyidagi mahsulotlar tanner hisoblash obyektlari bolib hisoblanadi: jun-gusht va go'sht-jun yetishtirishga ixtisoslashga qo'ychilikda jun qo'shilgan hamda tirik vazn: qorako'lchilikda bulardan tashqari barra go'shti bo'lishi mumkin.

Qoychilikning barcha tarmoqlardan olingan mahsulotlar tannarxini hisoblashda hisobot yilida qilingan xarajatlardan qo'shimcha mahsulotlarning qiymati normative xarajatlar asosida baholanib chegirib tashlanadi, qolgan xarajatlar summasi olingan asosiy mahsulot turlariga munosib ravishda taqsimlanadi.

Tug'ilgan qo'zilar tannarxini hisoblashda asosiy podaga qilingan jami xarajatlardan (qo'shimcha mahsulot qiymati chegirib tashlangandan qolgani) quyidagi miqdorlarga ajratib mahsulot birligiga (qo'zilkarboshsoniga) taqsimlanadi: jun-go'sht va go'sht-jun yo'nalishdagi qo'ychilikda -10%, ramonov qo'ychiligida 12%, qorako'lchilikda 15%.

Umumiy xarajatdan qozilar tannarxiga o'tkaziladigan summa chiqarib tashlangandan so'ng qolgan summa qoychilikdan olingan boshqa asosiy mahsulotlarning (1 kg ortgan vazn va 1kg jun) realizatsiya bahosi qiymatiga mutanosib taqsimlanadi tagishli so'mma esa mahsulot miqdoriga bolinib uning o'lchov birligi tannarxi aniqlanadi.

Qo'ychilikdan olingan ayrim mahsulotlar bir qancha qo'shimcha xarajatlarni talab etadi. Bular jun qirqish xarajatlari, junlarni saralash, markalash xarajatlariidan tashkil topadi. Bunday xarajatlar alohida anolitik schyotlarda hisobga olinib, tanner hisoblashda bevosita jun va terilar tannarxiga o'tkaziladi.

Qo'zlar sovg'idan ajratish paytidagi 1 sentner ortgan bu tirik vaznining tannarxi, ularning tug'ilgan paytidagi tannarxiga parvarishlash xarajatlar va yil davomida chetdan keltirilgan qo'zilar qiymatini qo'shib qo'zilarni sovg'idan ajratish vaqtidagi joriy yilga tegishli bo'lgan vaznga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Echkichilikda ham olingan nasl, tirik vazn va jun tannarxi quychilikdagi kabi tartibga aniqlanadi.

Parradachilkda tannarx hisoblash obyektlari asosiy podaga parandalarni saqlash va parvarishlash xarajatlariidan vazni va sutkalik jo'jalar hisoblanadi. 1 ming dona tuxum va parrandalarning 1qo'shilgan vaznining tannarxi parrandalarni saqlash va parvarishlash xarajatlariidan qo'shimcha mahsulot (pat, axlat) qiymati chegirib tashlanib qolgan summa tegishli mahsulot (yuxum, qo'shilgan tirik vazn) miqdoriga bo'lish yo'li bilan topiladi.

Sutkalik jo'jalarning tannarxi inkubatsiyaga doir barcha xarajatlardan qo'shimcha mahsulotlar qiymati chegirib tashlanib qolgan summa sutkalik sog'lam jo'jalar sog'lom jo'jalar miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Asal yo'nalishdagi asalarichilikda kalkulyatsiya obyekti bo'lib asal, asalari uyasi asalari suti yangi oila kabi asosiy va yondash mahsulotlar hisoblanadi. Ushbu mahsulotlar tannarxini kalkulyatsiya qilishda ularni barchasi belgilangann ko'itfitsentlarga shartli maxsulatga (asalga) o'tkaziladi.

Shundan so'ng barcha turdagi shartli maxsulotlarning jami shartli maxsulotdagi hissasi topiladi. Ushbu hissa asosida asalarichilikka sarflangan jami xarajatlar maxsulotlar o'rtasida taqsimlab chiqiladi. Har bir turdagi shartli mahsulot bo'yicha topilgan xarajat shu turdagi mahsulotning olingan miqdoriga bo'linib bir-birlik mahsulotning tannarxi topiladi.

Yurt rivoji bevosita iqtisodiyotning asosiy bo'g'inlariga borib taqaladi. Istiqlol sharofati bilan tub yangilikar va salmoqli ishlar amalga oshirildi. Jumladan hurmati prezidentimizning shaxshiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash hamda shu orqali chorvachilikni rivojlantirish yo'llaridagi fermer va qarorlari buning yaqqol misolidir.

Jahonda yuz berayotgan moliyaviy iqtisodiy inqirozini betalofat o'tkazish maqsadida, hukumatimiz ko'rsatmalariga asosan, tijorat banklari tomonidan chorvachilik tarmog'ini rivojlantirishga ham katta e'tibor bermoqda .Bu esa,o'z o'rnida go'shtga va sut mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirish imkonini berish bilan birga aholini ish bilan ta'minlash kabi dolzarb masalani hal etishga ko'maklashmoqda.

Chorvachilikni kelajakdagi rivojini taminlash maqsadida bir qator qonun va qarorlar qabul qilinganki, bu qonunlar mamlakatimizda chorvachilik mahsulotlarni talab doirasida ishlab chiqarishga va aholi dasturlariga yetkazib berishga xizmat qiladi.

Biz quyidagi jadval asosida „Nishon“ qorako'lchilik-naslchilikshirkat xo'jaligida chorvachilik mahsulotlarni yetishtirish holatini tahlil qilamiz.

2.2.1-jadval.

“Nishon” qorako'lchilik-naslchilik qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi)ning 2010 yildagi qishloq xo'jalik maxsulotlarini yetishtirish holati

T/p	Mazmunini	O'lchov birligi	2009 yil hisobot	2010 yil		Foiz	2009 yilga nisbatan farqi (+;-)
				reja	Haqiqat		
1	Go'sht	Tonna	269	423	309	73	40
2	Qorako'ltteri	Dona	441	3560	4291	121	3850
3	Jun	Sent	348	515	337	96.8	-11

Jadval ma'lumotlaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, go'sht yetishtirish 2010 yilga haqiqatga rejaga nisbatan 73.0 foizni tashkil etgan.2009 yilga nisbatan esa 40 tonnaga oshgan. Qorako'ltteri esa 3850 donaga ko'p yetishtirilgan, jun yetishtirish haqiqatga 96.8 foizni tashkil etib 2009 yilga nisbatan farqi 11 sentnerga kam bo'lgan.

Umumiy yer maydoni 2010 yilda reja bo'yicha 79713 gektar bo'lib haqiqatda 76613 gektarni tashkil etgan yani 96.1 foizni tashkil etgan.

Umumiy yer maydonida yaylovlar eng ko'p salmoqni egallagan.

2.2.2-jadval.

Qishloq xo'jalik kooperativida mahsulot sotish

T/p	Mazmunini	O'lchov birligi	2009 yil hisobot	2010 yil		Foiz	2009 yilga nisbatan farqi (+;-)
				reja	Haqiqat		
1	Go'sht	Tonna	172	313	97	31	-75
2	Qorako'leri	Dona	4593	3560	4431	124	-162
3	Jun	Sent	343	515	169	32.8	-174

Jadvalga ko'ra ko'rsatkichlar tahlil qilingan qishloq xo'jalik kooperativida mahsulotlarni sotish ishlari yaxshi yo'lga qo'yilmaganligidan dalolat beradiki yani 2010yilda 2009 yilga nisbatan go'sht 75 tonna qora teri 162 dona jun esa 174 sentnarga kam sotildi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki chorvajilik ko'rsatkichlarining mahsuldorligi pastligi ijtimioy vazifani to'liq amalga oshirish imkonini bermaydi. Chorva mahsulotlari eksporti bilan bog'liq iqtisodiy salohiyat haqida gapirmasa hambo'ladi. 2006 yilda respublika bo'yicha aholi jon boshiga go'sht va sut ishlab chiqarish (istemol qilish) ko'rsatkichlari 1995 yilgi darajada saqlanib qoldi. 2006 yilda aholi jon boshiga go'sht ishlab chiqarish 22.9 kilogramm va suy ishlab chiqarish 181 kilogramni tashkil qildi. Bu belgilangan ovqat normasidan ancha kam (tegishli ravishda 65 va 260 kilogramm)⁴¹.

2.2.3-jadval.

Qashqadaryo viloyati Nishon tumani „Nishon“ fermer xo'jaligi va tarkibidagi fermerlarchorva mollari bosh soni to'grisida ma'lumot

Turlari	Bosh soni		Farqi
	2010 1 yil yanvar holatiga	2010 yil 1 mart holatiga	
Qo'y va echkilar joni	36814	36521	-293
Shu jumladan: sovliqlar	21936	21764	-172
Otlar jami	6	6	0

Xo'jalikda fermerning qo'y va echkilar soni shirkat xo'jaligiga qaraganda ko'proq ekanligini ko'rishimiz mumkin yani 2010 yil 1 mart holatig 6503 boshga ko'pdir.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qumitasi ma'lumoti

2.2.4-jadval

Qashqadaryo viloyati Nishon tumanidagi “Nishon” Qorako’lchilik shirkat xo’jaligida 2010 yilda sovliq va echkilardan qo’zi va uloq olish rejasi⁵.

2010 yil 1 yanvarga mavjud qo'y bosh sonlari	Shu jumladan; sovliqlar	Har 100 bosh sovliqdan mahsuldorlik	Jami hosi	Shu jumladan					Shundan	Barra go'shti	Har 100 bosh sovliqdan qo'zi qoldi	Jami naslga urg'o'ji qo'zilar %
				Qorako'l	O'stirishga qolgan	Shundan						
						O'rtacha qo'zi	Erkak naslli qo'zi	Erkak brak				
30293	17856	100	17865	3560	14305	6412	3385	4508	-	-	80	45

2010 yil 1 yanvarda mavjud qo’y bosh sonlari 30293 bosh bo’lib, shu jumladan sovliqlar 17865 bosh bo’lib , har 100 bosh sovliqdan 100 boshdan qo’zi lish rejalashtirilgan.

⁵ Mavba: “Nishon” Qorako’lchilik nasilchilik qishloq xo’jalik kooperativi shirkat xo’jaligining 2010 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko’rsatkichlari.

III-bob. Jahan moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida chorvachilik harajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishni takomillashtirish

“Mamlakatimizni rivojlantirish yangilash va modernizatsiya qilish bo'yicha tanlangan strategiyamizni va inqirozga qarshi qabul qilingan dasturimizni amalga oshirish natijasida yurtimiz dunyodagi sanoqli davlatlar qatoriga iqtisodiy va ictimoiy rivojlanishning barqaror suratlarini ta'minlash aholimizni moddiy farovonligining moddiy farovonligini yuksaltirishga erishgani barjamizga katta mamnuniyat va iftixor bag'ishlaydi, albatta⁶”.

2009 yilda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sishi 8.1 foizni tashkil etdi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 9.0ga kuchaydi, qishloq xo'jaligida o'sish 5.7 foizni tashkil etdi. Chakana savdo aylanmasi 16.6 foiz, aholiga pullik xizmat ko'rsatish 12.9 foizga oshdi.

Bugungi kunda Respublikamizda barcha toifadagi xo'jaliklarda qoramollar umumiy bosh soni 8508.2 ming boshga (6.2 foizga) sigirlar 3520.3 ming boshga (5.36 foizga) qoy va echkilar 14930.3 ming boshga yetkazib 6.0 foizga o'sishga erishildi. Shunga ko'ra go'sht ishlab chiqarish 297.1 ming tonnaga (6.3 foiz) sut 1077.3 ming tonna (6.5 foiz) tuxum 575.1 mln donaga (12.2 foiz) jun 494 tonnaga (12.8 foiz) ko'paydi

Bugungi kunning eng dolzarb muammosi 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi, uning tasiri va salbiy oqibatlari yuzaga kelayotgan og'ir vaziyatlardan chiqish yo'llarini izlanish dan iboratdir. Bu jarayonning miqyosi asta-sekin kengayib, yirik banklarga moliyaviy tuzilmalarning likvidlik yani to'lov qobiliyati zaiflanib moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indeksleri va aksiyalarning bozor qiymati halokatli darajadapastga tushib ketishga olib keldi. Yuqoridagilarning barchasi albatta o'z navbatida ko'pgina mamlakatlarida ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish suratlarining keskin pasayishi bilan ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi .

Ma'muriy buyruqbozlik tizimidan boshqaruvning bozor tizimiga o'tish jarayonida tadrijiyyondashuvni . „Yangi uy qurmasdan turib eskisini buzmag“ degan hayotiy tamoilga tayangan holda islohotlarni izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lini tanladi.

Eng muhimi, parokandalik va boshboshdoqlik tasiriga tushib qolmasdan o'tishdavrida aynan davlat bosh islohotchi sifatida masuliyatni o'z zimmasiga olish zarurligini biz o'zimizga aniq belgilab oldik.

Mamlakatimizning uzoq va davomiyli manfatlari taqozo etgan holatlarda va keskin vaziyatlardan chiqish ular tug'diradigan muammolarni hal etish zarur bo'lganda iqtisodiyotda davlat tomonidan boshqaruv usullari qo'llandi va bunday yondashuv oxir oqibatda o'zini to'la oqladi.

Hozirgi vaqtda bir qator yetakchi tahlil va ekspertlik markazlari global moliyaviy inqiroz holatini va uning yuz berishi mumkin bo'lgan oqibatlariga doir

⁶ I.Karimov. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: “O'zbekiston” – 2010.

materillarni o'rganish va umumlashtirish natijasida quyidagi xulosalarga kelmoqda.

2008 yil noyabr oyida vashing tonda, jahon yalpi mahsulotning 85 foizini ishlab chiqaradigan 20 ta yirik davlat ishtirokida bo'lib o'tgan sammit global moliyaviy inqirozning ko'lamini tobora kengayib borayotgani tasdiqladi.

O'zbekistonda qabul qilingan o'ziga xos islohat va modernizatsiya modeli orqali biz o'z oldimizga uzoq va davomli milliy manfaatlarimizni amalga oshirish vazifasini qo'yar ekanmiz, eng avvalo „shok terapiyasi“ deb atalgan usullarni bizga chetdan turib joriy etishga qaratilgan urinishlardan, iqtisodiyoti o'zini o'zi tartibga soladi degan o'ta jun va aldamchi tasavvurlardan voz kechdik.

Dastlab zarar ko'rib ishlaydigan rantabilligi past va istiqbolsiz shirkat xo'jaliklarini tugatishi negizida tashkil etilgan xususiy fermer xo'jaliklari bugungi kunda hgaqli ravishda qishloqda yetakchi bo'linga qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi asosiy kuchga aylandi.

Hozirgi vaqtda fermer xo'jaliklari qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etishning eng samarali shakli ekanini hayotning o'zi tasdiqlab bermoqda. Yurtimizda fermer xo'jaliklarini moddiy texnik taminlash va moliyalash bo'yicha bozor iqtisodiyoti tamoillariga to'la javob beradigan ishli tizim va mexanizmlar shakllantirildi va muvofaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda.

Har yili fermer xo'jaliklarini qo'llab quvatlash uchun katta miqdorda moddiy resurs va mablag'lar ajratilmoqda.

Qishloq xo'jalik texnikasini lizing asosida sotib olish bo'yicha maxsus tashkil etilgan Fond hisobidan ushbu maqsadlar uchun 2008 yilgi 43 milliard so'mdan ziyod mablag' ajratilgan bo'lsa 2009 yilda 58 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi.

Prezidentimizning 2008 yil mart oyidagi „Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora tadbirlari to'g'risidagi qarori ana shunday kamchiliklarni bartaraf etib, mamlakat ichki istemol bozorini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga qaratilgan. Negaki, shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarining kuchayishi ayniqsa zotdor molar sonini ortishi bu boraga keng ko'lamli vazifalarni samarali amalga oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Qarorga qaromol porvarishi bilan shug'illanayotgan dehqon va fermer xo'jaliklari sonini ko'paytirishi, zoovetinaraniya hamda sunuiy urchitish punktlar tarmog'ini kengaytirish kabi bajarilishi lozim vazifalar belgilab berilgan.

Faoliyat yuritayotgan aksariyat fermer xo'jaliklarining ish tajribasi shundan dalolat beradiki fermer xo'jaliklarini shakllantirishning dastlabki bosqichida ularga ajratib berilgan yer maydonlarining kamligi mahsulot ishlab chiqarish rentabilligi o'sishiga ko'p jihatdan to'sqinlik qilmoqda.

Davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan etibor va amaliy yordam tufayli 2008 yilda fermer xo'jaliklarining paxta yetishtirishidagi ulishi 99.1 foizni g'alla tayyorlashda esa 76.2 foizni tashkil qiladi. Shu bilan birga o'tgan davr mobaynida oltirgan tajribamiz fermerlikni yanada rivojlantirish uchun bir qator juda muhim muammolarni xususan fermer xo'jaliklarining barqarorligi eng muhimi, ularning samaradorligini oshirish bilan bog'liq masalalarni hal qilishda o'z ifodasini topmoqda.

Mamlakatimizdagi fermer va dehqon xo'jaliklari o'zining yanada rivojlanishi uchun yangi shart sharoitlarini, imiyoz va rag'batlantiruvchi omillarni belgilash iqtisodiy dastak va mexanizmlarni ishlab chiqishni taqozo qilmoqda.

2008 yilda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning samaradorligining yanada oshirish prinsipial muhimi ahamiyatga ekanligini inobatga olib fermer xo'jaliklariga ajratilayotgan yer maydonlarini optimallashtirish bo'yicha zarur ishlar amalga oshirildi.

Imkoniyati, kuch-quvvati kam bo'lgan fermer xo'jaliklari o'zini zarur texnika aylanma mablag' bilan taminlash kredit qobilyatiga ega bo'lish eng asosiy o'z xarajatlarini qoplash va foyda ko'rib ishlash daromadini oshirishning ishonchli asosiga aylanolmasligi bugun hayotning o'zi ko'rsatmoqda. Shundan kelib chiqqan holda yer maydonlarini to'liq invitarizatsiyadan o'tkazish va fermer xo'jaliklari faoliyatini tanqidiy baholash asosida ularning yer maydonlarini optimallashtirish bo'yicha keng ko'lami shu bilan birga puxta o'ylangan holda ish olib boriladi.

Ana shu ishlar natijasida fermer xo'jaliklari uchun ajratilgan yer maydonlari bugungi kunda paxtachilik va g'allachilikda o'rtacha 37 gektardan 93.7 gektargacha ko'paydi yoki 2.5 barobar chovachilikda esa 150 gektardan 164.5 gektargacha ko'paydi, sabzavotchilikda 10 gektardan 24.7 gektargacha ko'paydi.

Ma'lumki mamlakatimizda kam taminlangan omillarni engir ajratish yo'li bilan qo'lab quvqtlashga alohida etibor qaratilmoqda. 2006 yildan 2008 yilga qadar an shunday oilalar uchun 103 mingdan ziyod qoramol berildi. Natijada 2009 yilning yanvar oyigacha shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida qoramol boquvchi sifatiga ro'yxatga olingan fuqarolarning umumiy soni 1 mln 100 ming dan ko'proq kishini tashkil etdi.

Aholini ayniqsa qishliq aholisini ish bilan taminlashning yana bir muhim yo'nalishi shaxsiy yordamchi dehqon xo'jaliklarida qoramol boqish bilan shug'illanadigan kishilar sonini ko'payirishdan iborat. Qayt etish kerakki bu masalaga muayyan ijobiy natijalar qo'lga kiritiladi.

Mamlakatimizda qoramollarni aholiga va fermer xo'jaliklariga kimochi savdolari orqali sotish ularga maqsadli va imtiyozli kreditlar berish vetirinariya xizmatlari ko'rsatishning sifati va hajmini oshirishi ozuqa bilan taminlash bo'yicha samarali mexanizmlar yaratiladi. Chorvachilini rivojlantirish dasturining ijrosi taminlash maqsadida yildan yilga bank kreditlari ajratilmoqda.

Mamlakatimizda jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009-2012 yil larga mo'ljallanib qabul qilingan inqirozga qarshi efolar dasturi O'zbekistonni 2012 yilda ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning eng ustivor yo'nalishi bo'lib qoladi.

„Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili“ davlat dasturida belgilab berilgan muhim chora tadbirlar to'g'risida to'xtalib o'tamiz.

1.Qishloqlarda yashovchilarning manfaatlarini yanada to'liqroq taminlash uchun qonunchilik va meyoriy huquqiy bazani yanada takomillashtirish va mustahkamlash.

1.1. “Yer kodeksi” , “Fermer xo'jaligi to'g'risida”gi amaldagi qonunlarga fermer xo'jaliklariga berilga yer maydonlari hajmini optimallashtirishni, yerlarning melifativ holatini yaxshilashni hamda yer suv resurslaridan foydalanish boyicha javobgarlikni oshirishni ko'zda tutuvchi o'zgartirish kiritish lozimdir.

1.2. Qishloq joylarda loyihalashtirib va qurilish tizimini tubdan takomillashtirishni ko'zda tutuvchi O'zbekiston Respublikasining Prezidenti farmonlari va qarorlari loyihasini ishlab chiqish:

2. Qishloqda uy-joy iqtimoiy soha obyektlarini qurishni loyihalashtirish, qishloq aholi punktlarini meyoriy rejalashtirishni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish.

Dasturda belgilangan vazifalar orasida qishloqlarimizda turmush sifatini tubdan yuksaltirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarini amalga oshirish prinsipial muhim va hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi: Buning uchun qishloq aholi punktlarini meyeroy jihatdan loyihalashtirish va qurish ishlarini tashkil etish tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish lozim. Hududlarni ma'muriy loyihaviy qurilishi bo'yicha bosh planlar ishlab chiqishni taminlash mintaqalarning iqlim, demografik holati va boshqa shart-sharoitlarni hisobga olgan holda qishloq yo'llarini va ijtimoiy inshootlarni unifikatsiya qilishningnamunaviy loyihalarini tayyorlash lozimdir.

Keying vazifalar quyidagilar :

- Suniy qochirish usulining urushining 20 % gacha yetkazish, 700 bosh zotdor qoramollarni chetdan olib kirish evaziga zotli chorva mollari eratish shilarini kuchaytirish va zoovetitirinariya xizmati sifatini oshirish;
- Ozuqa ekinlari maydonlarini 324.6 ming gektarga yetkazish orqali chorvachilikning ozuqa bazasini kengaytirishdan iboratdir.
- Qishloq joylarida 65 ming yangi ish o'rinlari bilan taminlovchi mehnat sig'imi yuqori bo'lgan ishlab chiqarish ko'rxonalarini rivojlantirish;
- Chorvachilik, parradanchilik komplekslari va issiqxona xo'jaligi;
- Sut va go'shtni qayta ishlash soxasi;
- Oziq ovqat va qandolatchilik sexlariri;
- Doimiy faoliyat ko'rsatuvchi ko'rgazma yarmarkalar tashkil etish;
- Har bir qishloq joylarda kamida 50 kam taminlangan oilalarni qoramol bilan taminlash evaziga 7000 yangi ish o'rinlari yaratishdan iboratdir.

Xulosa va takliflar

Chorvachilik tarmogi xalq xo'jaligida asosiy tarmoqlardan biri bo'lib, xalqning kundalik ehtiyojini qondirish inson salomatligini mustahkamlashga asos bo'ladigan tarmoq hisoblanadi. Sanoat korxonalarini xom-ashyolar bilan taminlaydi. Sut maxsulotlari zavodini sut bilan taminlab undan saryog', qatiq, qaymoq kabi sut maxsulotlari olinadi. Go'shtni yetkazib berish, teri sotish asosiy masalalardan biridir. Yaqin yillarda chorvachilik mahsulotlarining asosiy qismi hususiy sector tomonidan yetishtiriladi. Mol bosh soni 250 boshdan yuqori bo'lgan qoramolchilik fermalari fermer xo'jaliklariga aylantiriladi. Davlat naslchilik zavodlari, naslchilik xo'jaliklari va fermalari, baliq yatishtirish uchun mo'ljallangan xovuzlar va suv xavzalari xususiylashtirilmaydi.

Chorvachilikga qilinadigan xarajatlar o'ziga xos xususiyatlariga ega. Ishlab chiqarish davrida bo'lgan operatsiyalar oziqlantirish, mollarga qarash, maxsulot olish bilan kifoyalanadi. Bunday operatsiyalar har kuni amalga oshiriladi.

Chorvachilikda qoramillarg aqarash 2010-bosh schotining chorvachilikni hisobga oladigan subschotlarda bo'ladi. Sut beradigan qoramolchilik analitik schotining debet tomonida barcha xarajatlar hisobga olinadi.

- Sut beradigan qoramollarga qarash xarajatlari;
- Sut beradigan qoramollarga ozuqa berish xarajatlari;
- Sut beradigan qoramollarni sotib olish harajati;
- Boshqa belgilangan xarajatlar hamkiradi.
- Bercha malumotlar ochilgan analitik hisobdan olinadi. Qo'ychilikda xarajatlar quyidagicha hisobga olinadi: mayin

junli qo'ylar, yarim masken junli, qorako'ltari, barra teri boyicha yuritiladi.

Jamiyat taraqqiyotining asosiy moddiy nematlar ishlab chiqarishni tashkil etadi; bu jarayonda kishilar istemol buyumlarini, oziq ovqat,kiyim-kechak, hamda mehnat vositalarini mashinalar inshoatlar, asbob-uskunalar va hokozolar yaratadilar. Ishlab chiqarishdan olingan mahsulotlar taqsimlanadi, ayriboshlanadi va istemil qolinadi. Bunday doiraviy aylanish ishlab chiqarishning mohiyatini tashkil etadi.

Asosiy ishlabchiqarishni hisobga oluvchi schotlar hisobvarag'ida "chorvachilik" subshyotiyini ochish orqali amalga oshiriladi. Bunda asosan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tannarxi muhim iqtisodiy ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi. Chorvachilik mahsulotlari tannarxini hisoblashdan oldin 20-00 Asosiy ishlab chiqarishni hisobga oluchi schotlar hisoblanadi.Har bir chorva turi (guruhi) bo'yicha umumiy summasi aniqlanadi. Bunda xarajatlar hisob obektlari bo'yicha to'g'ri taqsimlanishi, kishi –soat, ozuqa-kunlar, ozuqa birliklarini to'g'ri hisobga olinishi, asosiy va qo'shimcha mahsulotlar qiymatni to'g'ri aks ettirilishiga katta etibor berish zarurdir. Mana shular sababli xarajaytlari obekti bilan tannarx hisoblash obektlari bir-biridan farq qiladi va mahsulot turlari o'rtasida xarajatlarini to'g'ri taqsimlash zaruriyati tug'lidi.

Chorvachilikda qo'shimcha mahsulotlarga go'sh, parranda axlati, jun, pat, teri hamda nobud bo'lgan hayvonlardan olingan nimtalangan go'shtva boshqalar kiradi.

Qashqadaryo viloyati Nishon tumanidagi “Nishon” qorako’lchilik naslchilik shirkat xo’jaligida 2010 yilda sotilgan mahsulot tannarxi va pul daromadi quyidagicha: 3560 dona qorako’l teri sotilib, uning to’liq tannarxi 17088 ming so’m, pul daromadi 21360 ming so’mni tashkil etib, olingan foyda 4272 ming so’mni tashkil etgan. 515 sentner junni to’liq tannarxi 14420 ming so’m, pul daromadi 18025 ming so’m hamda foyda 3605 ming so’mni tashkil etgan. Go’sht (tirik vaznda) 3127 sentner bo’lib, uning to’liq tannarxi 401229 ming so’m, pul daromadlari esa 562860 ming so’mni, foyda esa 161631 ming so’mni tashkil etgan. Jami chorvachilik bo’yicha to’liq tannarxi 432737 ming so’mni, pul daromadlari 602245 ming so’mni, foyda esa 169508 ming so’mni tashkil etgan.

Shirkat xo’jaligining moliyaviy natijalariga nazar tashlasak, sotilgan mahsulotlardan tushum 602245 ming so’mni, sotilgan mahsulot tannarxi 432737 ming so’m, davr xarajatlari 20210 ming so’m, hamda sof foyda 149298 ming so’mni tashkil etgan.

2009 yilda mayda shoxli molar 30293 bosh bo’lgan bo’lsa, 2010 yilda ularning soni 35876 boshga, ya’ni 5583 boshga ko’payganini ko’ramiz.

Davlatimizni ko’rsatmalariga binoan jahonda yuz berayotgan moliyaviy iqtisodiy inqirozni betalofat o’tkazish maqsadiga tijorat banklari tomonidan chorvachilik tarmog’ini rivojlantirishga ham katta ahamiyat berilmoqda. Bular esa o’z orniga go’sht va sut mahsulotlariga aholining bo’lgan talabini qondirish imkonini berish bilan bir qatarga aholini ish bilan taminlash kabi masalalarni hal etishda katta yordam bermoqda.

Yuqoridagilarni tahlilini ko’rib chiqib quyidagi takliflarni kiritaman:

1. Sut va go’sht mahsulotlarini qayta ishlaydigan mini texnologiyalarni qishloq markazlariga yetib borishini taminlash zarur.
2. Aholiga chorva mollarini boqish uchun omuxta em va xashaklarni imtiyozli narxlarda sotilishni yanada takomillashtirish:
3. Chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish uchun aholiga davlat kafolati asosida imtiyozli kreditlar berish lozim;
4. Parrandachilik, aslarichilik tarmog’ini yanada rivojlantirish lozim.
5. Chorvachilik sohasini yanada rivojlantirish asosida yangi ish o’rinlarini barpo etish lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Toshkent, "O'zbekiston" 2003
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqorolik kodekisi, Toshkent. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi 2003.
3. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Toshkent. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. 2008.
4. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun. O'zbekiston Respublikasi Vaairlar mahkamasi. 1996 yil 30-avgust.
5. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobing milliy standartlari. O'zBAMA nashriyot axborot markazi. Toshkent. 2002.
6. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonun. Toshkent. 1992 yil 9- dekabr.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori "Xo'jalik yuruyuvchi subyektlarning xarajatlarini hisobga olish va moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risida" 2003 yil 15-oktyabr. 444-sonli. O'zbekiston Respublikasining Moliyaviy qonunlari 12. 7-15-betlar.
8. O'zbekiston Respublikasining Vazirlar mahkamasi 1999 yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori bilantasdiqlangan "Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllanirish tartibi to'g'risida"gi Nizom Toshkent. 2007-yil. 32 bett.
9. Karimov I.A. Lahon miliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: "O'zbekiston", 2009 56 bett.
10. Karimov I.A. Erishgan marralarimizni mustahkamlab, islohotlar yolidan izchil boorish-asosiy vazifamiz. Xalq so'zi. 2004 yil 10-fevral.
11. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish-taraqqiyotimizning muhim omillardir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinganing 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi maruzasi. Qashqadaryo gazetasi 2010 yil 10-dekabr.
12. Karimov I.A. Mamlakatimizda demagratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining Qo'shma majlisidagi maruzasi.2010 yil 12-noyabr. // Turkiston gazetasi 2010 yil 13-noyabr.
13. Karimov I.A. Barcha reja va dsturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustivor yo'nalishlarga bag'ishlangan majlisidagi maruzasi. 2011 yil 21-yanvar. //O'zbekiston ovozi gazetasi 22-yanvar 2001yil.
14. Abdullayev A. Buxgalteriya hisobi: II-nashr. Yangi hisoblar rejasi asosida tuzildi, Y.:Minoj,2002 yil, 191-bett.

15. Abdullav A. Qosimov I, Ergashev A. Buxgalteriya hisobi nazariyasi, T.: “Sharq” 2003.
16. Bobajonov O. Moliyaviy hisob. Darslik T.: “Sharq” 2000 480-bett.
17. Vohidov S.V. Boshqa tarmoqlarda Buxgalteriya hisobining xususiyatlari o’quv qo’llanma.-T.: TDIU. 2004 310-bett.
18. Vahobov A., Ibrohimov A. Moliyaviy tahlil T.:”Sharq” 2002 310-bett.
19. Do’stmuratov A.D. „Audit asoslari”- T.:O’zbekiston milliyensiklopediyasi, 2003 518-bett
20. IbragimovA., Ochilov I., Qoziyev I., Ro’ziyev N. „Moliyaviy va boshqaruv hisobi” O’quv qo’llanma.-T.: “Iqtisod-moliya” 2008 444bett.
21. Ostanaqulov M. „Buxgalteriya hisobi nazariyasi” –T.: “O’zbekiston” 1993 496-bett.
22. Pardaeв M.Q. „Iqtisodiy tahlil nazariyasi” darslik. “Zarafshon”nashiryoti Samarqand 2011 272-bett.
23. Hasanov B.A. Xoshimov A.A. „Boshqaruv hisobi, darslik, „Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston milliy kutibxnasi” nashyoti- Toshkent. 2005
24. Qasgqadaryo viloyati Nishon tumani “Qorako’lchilik-naslchilik” qishloq xo’jalik kooperativi (shirkat xo’jaligi) matiriallari.

Internt saytlari

1. www.navod.uz
2. www.cer.uz
3. www.pravo.uz
4. www.uzlash.uz
5. www.president.uz